2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 32 (1093), 2024-yil 14-fevral, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI ULARNING SIFATINI OSHIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 13-fevral kuni Vengriyaning eng yirik “OTP” banki boshqaruvi raisi Shandor Chanini qabul qildi.

Uchrashuvda bank-moliya sohasidagi, shu jumladan, “OTP” guruhiga davlatning “Ipoteka-bank”dagi ulushini sotish bo‘yicha bitim doirasidagi hamkorlikning ijobiy sur’ati mamnuniyat bilan qayd etildi.

Davlatimiz rahbari bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali ularning sifatini oshirish, kichik va oilaviy biznes uchun innovatsion va hamyonbop moliyaviy mahsulotlarni joriy qilish, xodimlarni Yevropaning eng namunali amaliyotlariga o‘qitish muhimligini ta’kidladi.

Vengriyaning yetakchi kompaniyalari bilan, shu jumladan, Toshkent viloyatida ular uchun tashkil etilayotgan maxsus iqtisodiy zona negizida qishloq xo‘jaligi, vinochilik, irrigatsiya, kimyo, farmatsevtika va sanoatning boshqa tarmoqlarida kooperatsiyani yanada chuqurlashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Shandor Chani, o‘z navbatida, Vengriya biznesi mamlakatimiz bozoridagi faoliyatini jadal kengaytirishga tayyorligini tacdiqladi.

Uchrashuv yakunida “OTP” banki boshqaruvi raisi uning faoliyatiga berilgan yuksak e’tirof hamda o‘ziga davlat mukofoti — “Do‘stlik” ordeni topshirilgani uchun O‘zbekiston yetakchisiga chuqur minnatdorlik bildirdi.

O‘zA

JORIY YILGA MO‘LJALLANGAN STRATEGIK ISLOHOTLAR TAQDIMOT QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 13-fevral kuni joriy yilda amalga oshirish mo‘ljallangan asosiy strategik islohotlar bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida 2030-yilga borib, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmini 160 milliard dollarga, aholi jon boshiga daromadni 4 ming dollarga yetkazib, bu borada o‘rtachadan yuqori davlatlar qatoriga kirish maqsadi belgilangan. Buning uchun iqtisodiyotda transformatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish, investitsiya va biznes muhitini yanada yaxshilash, qishloq xo‘jaligida yuqori qo‘shilgan qiymatni ta’minlash zarur.

Taqdimotda shu boradagi 5 ta muhim soha — transport, urbanizatsiya va shaharsozlik, tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi va energetikadagi islohotlar ko‘rib chiqildi.

Iqtisodiyot rivoji uchun bosh omillardan biri bu — transport imkoniyatlari. Mamlakatimiz dengiz yo‘llaridan uzoqligi sababli avia va temir yo‘llarni diversifikatsiya qilishga urg‘u berilmoqda. O‘tgan yili 6 ta aviakompaniya tashkil qilindi, 28 ta yangi samolyot olib kelindi. Samarqand xalqaro aeroportiga xususiy sektor jalb etildi.

Bu ishlarni davom ettirib, “Uzbekistan Airports” va “Uzbekistan airways” kompaniyalari transformatsiyasini jadallashtirish, aeroportlar boshqaruvini xususiy sektorga berishni kengaytirish zarur.

Hududlarda moliyaviy xizmatlar, elektron tijorat, masofaviy ta’lim va tibbiyot xizmatlari rivojlanishi uchun sifatli internet ham muhim.

Kelgusi yetti yilda yurtimizda aholisi 300 mingdan ko‘p bo‘lgan shahar va tumanlar soni hozirgi 13 tadan 28 taga yetadi. Ayrim shahar va shaharchalarning bosh rejalari yo‘qligi sababli faqat eniga kengaymoqda. Bu infratuzilma xarajatlari oshishiga va qishloq xo‘jaligi yerlari kamayishiga olib kelmoqda. Shu bois, urbanizatsiya jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha konsepsiya va qonun ishlab chiqishga ehtiyoj bor.

Biznesga yanada qulay muhit yaratish uchun yo‘l, ichimlik suv, ta’lim, tibbiyot kabi sohalarda davlat-xususiy sheriklik qoidalarini aniq belgilash zarur. Ayni paytda tarmoq va hudud rahbarlari bilan birga bunday loyihalar dasturini ham shakllantirib borish joiz.

Davlatning ayrim funksiyalarini, jumladan, hududlarni obodonlashtirish, erkin iqtisodiy zonalarni boshqarishni xususiy sektorga berish masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

Qishloq xo‘jaligi aholini oziq-ovqat va ish bilan ta’minlashda katta o‘rin tutadi. Lekin uning ayrim tarmoqlarida ish tartibi haliyam eskicha. Shu bois, hosildorlikni oshirish va tannarxni kamaytirish, sohaga innovatsiyalarni olib kirish bo‘yicha aniq yechimlar kerak.

Iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish uchun, eng avvalo, barqaror energiya ta’minoti zarur. Bu yil jami 50 milliard dollarlik 122 ta yangi yirik investitsiya loyihalari boshlanadi. Shu bilan birga, aholi soni va korxonalar ham ko‘payib bormoqda. Yaqin yillarda energiyaga ehtiyoj kamida 1,5 barobar oshadi. Buning ustiga, ayrim tarmoqlarda energiya sarfi hamon yuqori.

Davlatimiz rahbari ushbu sohalarga oid takliflar bilan tanishib, ular bo‘yicha huquqiy asos va investorlar uchun mustahkam kafolatlar yaratish zarurligini ta’kidladi.

— 2024-yilda bozor iqtisodiyoti poydevorini qurishning barcha jarayonlarini yakunlab, 2025-yilda milliy iqtisodiyotimizni sifat jihatidan mutlaqo yangi darajaga olib chiqishimiz shart, — dedi Prezident.

Islohotlar jarayoniga mamlakatimizning barcha ilmiy-tadqiqot institutlarini jalb qilib, keng qamrovli “yo‘l xaritasi”ni tayyorlash vazifasi qo‘yildi.

O‘zA

Buyuk o‘zbek yo‘li

TADBIRKOR MA’NAVIYATI yangi davr talablariga javob beryaptimi?

(Ikkinchi maqola)

O‘zbekistonda uzoq yillar “Davlat — jamiyat — inson” tamoyiliga amal qilib kelindi. Ushbu tamoyil o‘z ijtimoiy-falsafiy mohiyatiga ko‘ra, insonni davlat va jamiyatdan begonalashtiradi, ma’naviyatini xiralashtiradi, uni siyosiy va iqtisodiy mexanizmning arzimas bo‘lagi, oddiy elementiga aylantiradi.

Aslida esa inson, uning haq-huquqlari va baxt-saodati davlat siyosati va jamiyat hayotining eng ustuvor maqsad-muddaosi bo‘lishi lozimligi tarixda ko‘p bora isbotlangan. Keyingi yillarda jamiyatimiz hayoti va tafakkuridagi o‘zgarishlar tufayli mazkur tamoyil tariximizda birinchi marta **“Inson — jamiyat — davlat”** shaklidagi tayanch g‘oyaga aylandi.

Prezidentimiz **“Bu siyosat bir yil bilan cheklanib qolmasligi, doimo bardavom bo‘lishi barchamizga ayon. Aslida ham, bizning eng bebaho boyligimiz, bu — bunyodkor xalqimiz, duogo‘y otaonalarimiz, navqiron avlodimiz emasmi?**

Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘lig‘i joyida bo‘lishi, yaxshi ta’lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo‘lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo‘ldan aslo to‘xtamaymiz,” deya alohida ta’kidlagani esa, mazkur yo‘nalishdagi tadrijiylikning yaqqol ifodasidir.

TADBIRKORLIK MAS’ULIYATI

Alohida ta’kidlash joizki, “Davlat — jamiyat — inson” tamoyilining **“Inson — jamiyat — davlat”** tamoyiliga o‘zgartirilishi va shaxs omilining birinchi o‘ringa chiqarilishi barcha sohalar va dolzarb masalalarda nafaqat davlat va jamiyat mas’ulligini, ayni paytda insonning ham mas’uliyatdan xoli bo‘lmasligini anglatadi. Ya’ni davlat organlari, vazirlik va idoralar faoliyatidan qat’i nazar, ushbu yo‘nalishdagi ma’naviy muhit va ijtimoiy makon qiyofasini tadbirkor hamda mulkdorlarning shaxsiy xislati, fazilatlari, hayotiy pozitsiyasi, ishga va kasbiga munosabati, vijdoni, mas’uliyat hissi ham ko‘p jihatdan belgilaydi.

Davomi 3-betda

Qishloq xo‘jaligi

BIZNI SINOVLARDAN NIMA QUTQARADI?

BUGUN ILM-FAN VA INNOVATSIYA HAR QACHONGIDAN AHAMIYATLI BO‘LIB BORMOQDA

Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabi ko‘plab ajdodlarimiz jahon tamadduni va ilm-fan yutuqlariga juda katta hissa qo‘shgani shu Vatan, shu yurt farzandi sifatida har birimizning qalbimizda cheksiz faxr-iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Muhimi shundaki, genimizda yaratuvchanlik, mehnatdan qochmaslik, izlanishdek xislatlar mujassam. Shu ma’noda, jadallashib borayotgan hozirgi texnika asrida ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etgan, o‘z ilmi va tajribasiga ishongan millatgina dunyo siyosatida, sayyoramizdagi global muammolar qarshisida barqaror tura oladi, desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ayni paytda esa O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayoni kechmoqda, jamiyatimiz tub burilish arafasida turibdi. Bu, albatta, davlatimiz rahbari boshchiligida ilgari surilayotgan tashabbuslar samarasidir. Bugungi geosiyosiy beqaror vaziyatda hayotning o‘zi oldimizga qo‘yayotgan sinovlardan esa bizni faqatgina ilm-fan va har bir sohaga innovatsion yondashuvlar olib chiqadi.

Hozir dunyo nufusi 8 milliardga yaqinlashib qoldi. Shu jumladan, mamlakatimizda ham aholining demografik o‘sish darajasi yildan-yilga ortib boryapti. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institutining ma’lumotlariga ko‘ra, 2030-yilga borib, yurtimiz aholisi 41 milliondan oshadi. Albatta, bu e’tiborga molik jihat. Chunki o‘sish, o‘z navbatida, oziq-ovqatga ehtiyojni ham ko‘paytiradi.

Davomi 4-betda

14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi kuni

IKKI DAHO VA besh ruboiy

Zahiriddin Muhammad Bobur hazratlarining Mir Alisher Navoiy bobomizga doimo havas bilan qaragani va bu “ko‘p va xo‘b” ijod qilgan daho shoirni o‘ziga ustoz, deb bilgani ko‘pchilikka ma’lum. Shu bois, ular she’riyatida o‘xshashliklar uchrashi tabiiy, lekin bunday yaqinlikni Boburning Navoiyga taqlidi, deb talqin qilish ular she’riyatiga yuzaki, nojiddiy yondashuvdan boshqa narsa emas. Aslida esa Bobur lirikasidagi Navoiyga tatabbular ikki shoirning ham o‘ziga xos musobaqasi, ham daho shogird tomonidan daho ustoz asarining tasdiq usuli orqali muayyan ma’nodagi to‘ldirilishidir. Kamina o‘shanday asarlar xususida bir necha og‘iz so‘z aytmoqchiman.

Hazrat Navoiyning ajoyib bir ruboiysi bor. Unda shakl go‘zalligi mazmun go‘zalligi bilan kim o‘zarga bahslashadi. Bu ikki go‘zallik she’rxon ko‘zi o‘ngida xuddi quyosh bilan oy munosabatlari kabi tengsiz bir maqomda namoyon bo‘ladi.

Jondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz.
Har neniki sevmoq ondin ortiq bo‘lmas,
Ondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz.

Davomi 6-betda

Bugun dunyoning turli burchaklarida yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini ta’minlayotgan harbiylarimiz, o‘g‘il-qizlarimizni chinakam vatanparvar, fidoyi, yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashni taqozo etmoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 14-fevral, 32-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Bugunning gapi

TINCH TURARMU BU KO‘HNA OLAM...

Hozir insoniyat aql-zakovat bilan bunyod bo‘lgan yangi sivilizatsiya sharoitida yashamoqda. Hayot sur’ati mislsiz darajada shiddatli, jahonning eng kichik nuqtasida sodir bo‘lgan har qanday yangilikdan dunyo xalqlari zudlik bilan xabar topadigan zamon. Intellektual salohiyat bilan yaralgan sivilizatsiya fan, texnika, texnologiyalarning o‘zaro uyg‘unligidan boshlab, inson mentaliteti, dunyoqarashi, turmush tarzi, axloqiy qadriyatlarini o‘zgartirishga ham ta’sir o‘tkazmoqda.

Oybarchin ABDULLAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Prezidentimiz aksariyat chiqishlarida dunyoda insonlar ongi va shuuri uchun keskin kurash hamda raqobat hukm surayotgan ayni zamonda milliy o‘zlik, ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortayotganiga alohida e’tibor qaratadi. Darhaqiqat, har bir millat real subyekt sifatida ma’naviyati orqali o‘zini namoyon etadi. Uning o‘ziga xos urf-odat, an’ana, qadriyatlari va mentaliteti ma’naviyatda o‘z ifodasini topadi. Sobiq sho‘rolar hukmronligining millatlarni barbod qilishga qaratilgan siyosati sharoitida ma’naviyat mustaqil mavzu yoki ilmiy tadqiqot sifatida o‘rganilmay kelindi. Sababi, ma’naviyatning yaratuvchisi ham, iste’molchisi ham o‘zligini anglashi ta’sirida milliy ozodlik haqida o‘ylab qolishi mumkin edi.

Oradan necha yillar o‘tdi. O‘zbekiston mustaqil bo‘ldi. Ma’naviyat, milliy g‘oya, vatanparvarlik kabi tushunchalarga e’tibor keskin oshdi. O‘zining chuqur ma’naviy zaminiga ega xalqimiz ham ruhan, ham qalban tetiklashdi. Boisi, xalqni rozi qilish, inson huquq va erkinliklarini, qadr-qimmatini ulug‘lash barcha sa’y-harakatlarimiz asosi ekani, yangi O‘zbekiston mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizmdan iboratligi baralla aytildi.

Bugun dunyoning turli burchaklarida yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar yurtimiz tinchligi va osoyishtaligini ta’minlayotgan harbiylarimiz, o‘g‘il-qizlarimizni chinakam vatanparvar, fidoyi, yuksak ma’naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashni taqozo etmoqda. Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: harbiylarning ma’naviy-axloqiy qiyofasi qanday bo‘lishi kerak? Tinchlikni saqlashga bel bog‘lagan o‘g‘il-qizlarimizni mard, matonatli, jasur, irodali shaxs sifatida tarbiyalashga kimlar mas’ul? Bu bo‘yicha aniq yechim, formula bormi o‘zi? Nazarimda, Vatan taqdiriga befarq bo‘lmagan har bir insonni o‘ylantiradigan bu savollarga javobni birgalikda, hamjihatlikda izlab topishimiz kerak.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash haqida gapirishdan oldin har birimiz o‘zimizga muhim savolni berishimiz lozim: shahar va tumanlar, davlat idoralari rahbarlari, sportchi va san’atkorlar, muhandis-pedagoglar, biz — deputatlar vatanparvarmizmi? Yoshlarimizga kimni namuna qilib ko‘rsatamiz? Yosh avlodga tarixiy qahramonlarimizning jasoratini so‘zlab berish orqaligina vatanparvarlik tuyg‘usining namoyon bo‘lishini kutish qiyin.

Ishonchim komilki, yosh avlod har kuni ko‘radigan “zamonamiz qahramonlari”ga muhtoj! Ular maktab o‘qituvchisi, o‘t o‘chiruvchi, harbiy xizmatchi, birovga beminnat yordam qo‘lini uzatgan, o‘z universiteti, ko‘chasi, tumanida hashar o‘tkazgan oddiy insonlar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Yoshlarga milliy miqyosda kichik bo‘lsa-da, boshqalarga ko‘rinadigan amaliy harakatlariga ega odamlar kerak.

Bugun yoshlarimizning qo‘liga eng so‘nggi rusumdagi harbiy vosita, texnika berib qo‘yishimiz, barcha ijtimoiy, iqtisodiy va tashkiliy sharoitni ham yaratishimiz mumkin, lekin ongini, tafakkurini ilm, ma’rifat, ma’naviyat bilan to‘yintirmas ekanmiz, xalqimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning qahramonligi haqida so‘zlab bermas ekanmiz, ko‘zlangan maqsadga erishishimiz amrimahol. Ne-ne allomalar, buyuk ajdodlar avlodi ekanimizdan faxrlanamiz, lekin ularning mashaqqatli hayot yo‘li, fidoyiligi, Vatanini, elini qanchalik ardoqlaganini ko‘rsatib bera olmayapmiz. Jadid bobolarimiz buyuk ekanini e’tirof etyapmiz, ammo ularning g‘oya va qarashlari haqida badiiy yoki hujjatli filmlar yaratishda oqsoqliklarimiz yetarlicha. Buyuk bobolarimizning teran nuqtayi nazarini sodda qilib, yoshlarbop sharhlaydigan olimlarimiz, mutaxassislarimiz ham yetarli, deb bo‘lmaydi. Zero, Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniy kabi jadid bobolarimiz ilgari surgan g‘oyalar hanuzgacha dolzarbligini yo‘qotmaganini unutmasligimiz darkor.

2023-yilgi ma’lumotga ko‘ra, O‘zbekistonda 27 milliondan ortiq internet foydalanuvchisi bor, ularning 6 milliondan ziyodi ijtimoiy tarmoqlarda ro‘yxatdan o‘tgan. Katta ehtimol bilan foydalanuvchilarning salmoqli qismini 30-35 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil qiladi. Bu esa bo‘sh vaqtida telefoniga tikilib o‘tiradigan o‘g‘il-qizlarga vatanparvarlikka undaydigan, soxtakorlikdan yiroq milliy kontentlarni taqdim etishimiz uchun zo‘r imkoniyat mavjud, degani. Lekin biz milliy ma’naviyatimiz, boy madaniy tariximiz targ‘ibot-tashviqotida eskicha yondashuvlardan voz kecha olmayapmiz.

Jadidchilik harakati yetakchilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy “Zamona ilm-u fanidan bebahra millat o‘zgalarga poymol bo‘lur”, degan fikrni bejiz aytmagan. Hozir navqiron avlod vakillarini turli xavfli g‘oya va “ommaviy madaniyat” ta’siridan himoya qilish allaqachon dolzarb masalaga aylanib ulgurgan. Globallashuv sharoitida milliy-ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash imkoniyatlari tahlili yurtimizda boy madaniy merosimizni yoshlar ongi va dunyoqarashining ajralmas qismiga aylantirish uchun barcha shart-sharoit mavjudligini ko‘rsatadi. Shunday ekan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda milliy qadriyatlarimizga tayangan holda xorijning ilg‘or tajribasidan unumli foydalanish, bu jarayonda ziyolilar, ijodkorlardan tashqari biz, parlament a’zolari ham jonbozlikni qo‘ldan boy bermasligimiz lozim.

Xalqaro anjuman

RADIO DASTURLAR MAZMUNAN BOYITILADI

axborot maydonida raqobatbardosh milliy kontent yaratish dolzarb masala

Bugun jamiyatda inson ongi va qalbini zabt etish, unga o‘z hukmini o‘tkazish, ma’naviyatidan tortib milliy urf-odat va qadriyatlaridan judo etishga yo‘naltiriladigan axborot xurujlari mavjud va ular ko‘rinmaslik xususiyatiga ega. Ayni sabab unga qarshi milliy axborot immunitetini shakllantirish, axborot maydonida raqobatbardosh milliy kontent yaratish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Zamonaviy tahdidlarga qarshi munosib kurash olib borish uchun, avvalo, axborot makonida milliy kontent yaratish zarurati, dunyodagi voqealarga milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan baho berish lozimligi, aks holda, tashqaridan turli axborot xurujlari kirib kelishiga imkon yaratib qo‘yilishi, yangilik va axborotga ehtiyojning boshqalar tomonidan to‘ldirilishiga sabab bo‘ladigan noxush oqibatlardan ogoh bo‘lish lozimligini davlatimiz rahbari ham bot-bot ta’kidlab kelmoqda.

Ommaviy axborot vositalarida zamonaviy fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda, radioda milliy media mahsulotlarini ko‘paytirish, milliy kontentni qo‘llab-quvvatlash, radiotinglovchilar auditoriyasini kengaytirish maqsadida poytaxtimizda “Butunjahon radio kuni” munosabati bilan **“Radioda milliy kontentning o‘rni”** mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi. O‘zbekiston Milliy media birlashmasi tomonidan tashkil etilgan tadbirda soha mutaxassislari, xorijlik ekspertlar, jurnalist va tadqiqotchilar ishtirok etdi.

— Xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni salbiy axborotlar ta’siridan asrash uchun o‘z milliy axborot makonimiz bo‘lishi va ushbu manbalar milliy kontent bilan to‘ldirilishi lozim, — deydi radiojurnalist Navfal Boltayev. — Bu borada mamlakatimizda katta salohiyat mavjud. Ya’ni turli sohalarga ixtisoslashgan gazeta, tele va radiokanallar, mahalliy nashrlar va hatto ko‘plab nodavlat matbuot vositalari faoliyat yurityapti. Internet jurnalistikasi ham yil sayin rivojlanmoqda. Endigi asosiy vazifa — ularni bugungi kun talabi va xalqimiz ehtiyojiga mos milliy kontent bilan to‘ldirish.

Konferensiyada so‘zga chiqqan O‘zbekiston Milliy media birlashmasi raisi Sherzodxon Qudratxo‘ja radiokanallar faoliyati, ularning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy dasturlar sonini oshirish masalalari haqida fikrlarini bayon qildi. Butunjahon radio kunining asoschilaridan biri Xorxe Alvares (Ispaniya) “Zoom” orqali barcha o‘zbek radiojurnalistlarini bayram bilan tabrikladi.

Shuningdek, tadbir davomida yangi loyihalar taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Tarixiy faktlar va jadidlar ijodiy merosini keng ommaga targ‘ib qilish maqsadida yaratilgan “Tarixingdir ming asrlar” dasturining 50 ta soni radiokanallarning efir dasturlari uchun taqdim etildi.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Biz va dunyo

YOVVOYI HAYVONLARNING KO‘CHIB YURUVCHI TURLARI DUCH KELAYOTGAN MUAMMOLARNI HAL QILISHDA O‘ZBEKISTON YETAKCHILIK QILMOQDA

Samarqand shahrida BMTning Yovvoyi hayvonlarning ko‘chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasi (CMS COP14) ishtirokchilari konferensiyasining 14-yig‘ilishi bo‘lib o‘tmoqda.

Tadbirda 130 ta davlatdan 1800 dan ortiq delegat qatnashmoqda.

12-fevral kuni bo‘lib o‘tgan xalqaro anjumanning ochilish marosimida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev forum ishtirokchilariga tabrik yo‘lladi.

Konferensiya doirasida zamonaviy global ekologik kun tartibining asosiy masalalari muhokamasiga bag‘ishlangan muhim tadbir va sessiyalar o‘tkazilmoqda. Xususan, BMTning Yovvoyi hayvonlarning ko‘chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasi Kotibiyati tomonidan ilk bor tayyorlangan “Yovvoyi hayvonlarning ko‘chib yuruvchi turlarining holati to‘g‘risida global hisobot” taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Ushbu hujjat dunyodagi hayvonlarning migratsiya holati to‘g‘risidagi birinchi hisobotdir. U to‘rt bobdan iborat bo‘lib, ko‘chib yuruvchi turlar, uzoq muddatli qolish tendensiyalari, asosiy tahdidlar hamda paydo bo‘ladigan muammolarga javoblar va boshqa muhim xususiyatlar haqida ma’lumot berilgan.

Shu bilan birga, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Jiltirbas ko‘li suv-botqoq yerlari xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan Ramsar konvensiyasiga qabul qilingani ma’lum qilindi.

Ayni paytda mamlakatimiz hududida joylashgan Dengiz-ko‘llar (2001-yil), Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi (2008-yil), Quyimozor va To‘dako‘l suv omborlari (2020-yil) va Sudochye ko‘li (2023-yil) Ramsar konvensiyasi ro‘yxatiga kiritilgan.

Xalqaro forum doirasida uchta hujjat imzolandi. Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasida Afrika va Yevroosiyoda ko‘chmanchi yirtqich qushlarni saqlab qolish bo‘yicha o‘zaro anglashuv memorandumi, Ustyurt platosida (Qozog‘iston, O‘zbekiston) yovvoyi tabiatni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi tomonidan “O‘zbekistonda oziq-ovqat tizimi, yerdan foydalanish va qayta tiklashga ta’sir qilish dasturi” (FOLUR) loyihasini amalga oshirish kabi hujjatlar shular jumlasidan.

> **Mamlakatimiz hududida joylashgan Dengiz-ko‘llar (2001-yil), Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi (2008-yil), Quyimozor va To‘dako‘l suv omborlari (2020-yil) va Sudochye ko‘li (2023-yil) Ramsar konvensiyasi ro‘yxatiga kiritilgan.**

Musonda MUMBA,
Xalqaro ahamiyatga ega suvda suzuvchi qushlarning yashash joylari bo‘lgan suv-botqoq joylar to‘g‘risidagi konvensiya bosh kotibi (Ramsar konvensiyasi):

— Biz Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarining tog‘li hududlarida ko‘plab o‘zgarishlarni ko‘ryapmiz. Shuning uchun ushbu tizimlarni qayta tiklashga e’tibor qaratish juda muhim. Ekotizimlarni qo‘llab-quvvatlash uchun mintaqada yetishmayotgan suv resurslarini kuzatib borish kerak. Orol fojiasi barchamiz uchun yaqqol ibrat va saboq bo‘lib, atrof-muhitni asrab-avaylash yo‘lida mehnat qilish zarurligini eslatib turadi.

Iqlim o‘zgarishi haqiqat va biz uning ekotizimlarga hamda hayvonlar turlarining yashash joylariga qanday ta’sir qilishini ko‘ryapmiz.

O‘zbekistonning sa’y-harakatlariga kelsak, mamlakat ekologik muammolarni hal qilishga jiddiy e’tibor qaratmoqda.

Ushbu anjuman Buyuk ipak yo‘lining Samarqanddek qadimiy shahrida bo‘lib o‘tayotganidan, unda ko‘p ishtirokchilarni ko‘rayotganimizdan juda xursandman.

Shuningdek, iqlim kun tartibi, biologik xilma-xillik va migratsiya masalalariga e’tibor qaratish zarurligini alohida qayd etishni istardim. Ushbu omillarning barchasi muhim va men O‘zbekiston tomonidan bu boradagi sa’y-harakatlarni ko‘ryapman. Mamlakatingiz ekologik muammolar bilan jiddiy shug‘ullanmoqda, bundan tashqari, respublikaning mintaqadagi yetakchiligini ham qayd etishimiz mumkin.

Daniel GUSTAFSON,
BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) bosh direktorining maxsus vakili:

— Bunday uchrashuvlar muammoga qarshi nima qilishimiz kerakligiga e’tibor qaratish imkonini beradi. Konferensiyadan kutganlarimga kelsak, u Markaziy Osiyoning beshta davlati o‘rtasidagi aloqalar va albatta, global hamkorlik muhimligini namoyon etdi. O‘zbekiston kun tartibiga qanday innovatsiya va tashabbuslar olib kirayotganini, Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan ijobiy muloqot yo‘lida olib borayotgan ishlari ham muhimligiga guvohi bo‘lib turibmiz. Ishonchim komilki, bunday yondashuv bo‘yicha barchamiz bir yo‘lda bo‘lamiz. Konferensiya “Tabiat chegara bilmaydi” shiori ostida bo‘lib o‘tayotganining o‘zi asosiy yangilik, deb o‘ylayman.

O‘zbekiston uchun bu anjuman, ayniqsa, dolzarb. Chunki mamlakat qishloq xo‘jaligiga zararli bo‘lgan iqlim o‘zgarishining ta’sirini allaqachon his qilmoqda. Bularning barchasi juda jiddiy va hozir bu masalalarga birinchi navbatda e’tibor qaratishimiz kerak.

Inger ANDERSEN,
Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining o‘rinbosari, BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) ijrochi direktori:

— BMTning Yovvoyi hayvonlarning ko‘chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasi muhim hujjat bo‘lib, mamlakatingiz Orol dengizining qurib qolgan hududlarida millionlab ko‘chat ekish orqali ekotizimni tiklash bo‘yicha maxsus dasturda faol ishtirok etmoqda. Ishonchim komilki, bu katta jumboqning muhim yechimidir.

Ta’kidlash kerakki, biz mamlakatingizda bu muammoni hal etish bo‘yicha yuqori intilish va faol harakatlarni ko‘rib turibmiz. Men ko‘chib yuruvchi hayvonlar turlari uchun ishonchli marshrutni ta’minlashni nazarda tutyapman va bu nafaqat qushlarga balki boshqa hayvonlarga ham tegishli. Agar biz ushbu muammoni ijobiy hal qila olsak, ekotizimni tiklaymiz. Bu nafaqat ko‘chib yuruvchi hayvonlar, balki qo‘shnilar bilan do‘stona aloqalarni saqlab qolish uchun ham juda muhim hisoblanadi. Agar sizda atrof-muhit bilan bog‘liq muammolar bo‘lmasa, chang-bo‘ronlar yo‘q bo‘lsa, yurtingizga ko‘proq sayyohlar keladi va shunga mos ravishda daromad ham oshadi. Agar unumdor tuproq bo‘lsa, unda qishloq xo‘jaligi gullab-yashnaydi.

Shunga ko‘ra, yovvoyi hayvonlarning migratsiya yo‘llarini himoya qilish orqali biz nafaqat ularga g‘amxo‘rlik qilamiz, balki ushbu mintaqada yashovchi xalqlarga haqiqiy foyda keltiramiz.

Aytish mumkinki, O‘zbekiston Prezidenti aynan shunday nuqtayi nazarni namoyon etmoqda, shuning uchun biz BMT a’zolari bu yerda ekanimizdan mamnunmiz.

Doktor Umberto GALLO-ORSI,
BMTning Yovvoyi hayvonlarning ko‘chib yuruvchi turlarini saqlab qolishga doir konvensiyasi asosida tashkil etilgan Afrika va Yevroosiyoda ko‘chmanchi yirtqich qushlarni saqlash bo‘yicha o‘zaro anglashuv memorandumining muvofiqlashtirish bo‘limi rahbari:

— Bunday uchrashuvlar juda muhim, chunki ko‘chib yuruvchi hayvonlarni himoya qilish faqat xalqaro hamkorlik orqali amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, faunaning bu turlari doimiy ravishda chegaralarni kesib o‘tadi. Ular uchun mas’uliyat nafaqat o‘z naslini ko‘paytiradigan mamlakatlar, balki bu turlar guruh bo‘lib ko‘chib yuradigan davlatlarda ham yuksak. Shuning uchun biz yashash joyi atamasini ishlatamiz. Shubhasiz, bunday hayvonlar turlarini himoya qilish uchun muntazam muloqot va umumiy choralar zarur.

Ko‘chib yuruvchi hayvonlar turli hududlarda ko‘plab tahdidlarga duch keladi, shuning uchun ehtiyot bo‘lishimiz va ularni himoya qilish uchun barcha muammolarni hal etishga harakat qilishimiz kerak.

Shuni alohida ta’kidlashni istardimki, O‘zbekiston ko‘chib yuruvchi hayvonlar turlari duch keladigan muammolarga qarshi kurashishda yetakchilikni namoyish etmoqda. Masalan, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasida Afrika va Yevroosiyoning ko‘chmanchi yirtqich qushlarni saqlash bo‘yicha o‘zaro anglashuv Memorandumi imzolangani nafaqat sa’y-harakatlarni shakllantirishga yordam beradi, balki ularni muvofiqlashtiradi.

“Dunyo” AA
Samarqand

yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

2024-yil 14-fevral, 32-son

Buyuk o‘zbek yo‘li

TADBIRKOR MA’NAVIYATI

yangi davr talablariga javob beryaptimi?

(Ikkinchi maqola)

Qiyom NAZAROV,
falsafa fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Binobarin, hozirgi davrda davlat tomonidan ko‘plab iqtisodiy-siyosiy islohotlar, tadbirlar amalga oshirilmoqda. Vazirlik va idoralar belgilab berilgan strategiya doirasidagi maqsadlar, dastur va rejalarni bajarmoqda. Tadbirkorlar va mulkdorlarning iqtisodiy rag‘bati va ma’naviy kamoloti uchun obyektiv shart-sharoitlar tobora yaxshilanib boryapti.

Ammo tadbirkorlik ma’naviyati, har bir tadbirkorning ijtimoiy mas’uliyati va uning hayotda namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq masalalarning konkret shaxs, inson omili bilan bog‘liq nihoyatda muhim ahamiyatga molik subyektiv jihatlari ham bor. Shu nuqtayi nazardan, “Tadbirkor ma’naviyati” tushunchasining ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘liq jihatlari jahon tajribasi va bugungi hayot voqeliklari orqali yaqqol namoyon bo‘layotganini aniq-tiniq ko‘rish va turli misollar orqali to‘g‘ri tasavvur qilish mumkin.

Keling, ushbu mavzuda nazariy fikr va umumiy mulohazalardan ko‘ra, aniq misollarga murojat qilaylik. Masalan, Yaponiya jamiyati va uning a’zolari to‘g‘risida chop etilgan qiziqarli asarlardan biri “Ryoandzi bog‘ining o‘n beshinchi toshi” nomli kitobda yapon biznesmenlariga xos nihoyatda ibratli xislatlardan biri haqida hikoya qilingan. Muallifning guvohlik berishicha, aksariyat yapon tadbirkorlari o‘zlariga yuz minglab dollar foyda keltirishi mumkin bo‘lgan biror-bir shartnoma Yaponiyaga va yapon xalqiga bir necha ming dollar miqdorida moddiy yoki ma’naviy zarar keltirishini bilib qolsa, uni hech qachon imzolamas ekan. Yaponlar orasida uzoq yillar yashagan asar muallifi “Ularni bunga undashning foydasi yo‘q, baribir maqsadingizga yetolmaysiz va o‘z yo‘lingizga sola olmaysiz”, degan xulosaga kelgan.

Boshqa bir manbada esa, nafaqat Yaponiya, balki dunyoda ham mashhur ta’lim dargohi — Nagoya universiteti bilan bog‘liq bir misol keltirilgan. Unga ko‘ra, yaqinda mustaqillikka erishgan mamlakatlardan biriga kelgan ushbu universitet vakiliga “Bizning yurtimizda dunyoning ko‘plab oliy ta’lim muassasalari filiallari ochilgan. Sizlar ham shu yo‘ldan borsangiz, millionlab foyda ko‘rar edingiz. Taklifimizga rozi bo‘lmayotganingizning sababi nimada? Yoki katta foyda olishingizga ishonchingiz komil emasmi”, degan savol berilganda aytilgan quyidagi javob yapon tadbirkorining ma’naviy qiyofasini yaqqol ifodalaydi: **“Bu ishdan katta iqtisodiy foyda olishimizni yaxshi bilamiz va bunga ishonchimiz komil. Ammo yurtingizda ochiladigan filialimizning Yaponiyadagidek samarali ta’lim tizimiga aylanishi va har bir talaba, bo‘lajak mutaxassis uchun bizdagi kabi yuksak darajali, nihoyatda mazmundor va foydali bilim berishiga ishonchimiz komil emas. Bu esa, nafaqat bizning universitet, balki butun Yaponiya ta’lim tizimi obro‘sizlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Biz bunga hech qachon yo‘l qo‘ymaymiz va har qanday shaxsiy foyda olish imkoniyati bizni Vatanimiz sha’niga dog‘ tushiradigan yengil-yelpi yo‘lga sololmaydi”.**

Kunchiqar yurt haqidagi ushbu ibratli misollarga duch kelar ekansiz, “Bizning tadbirkorlarimiz orasida bunday imkoniyat bo‘lganida yapon tadbirkorlaridek ish tutadiganlar necha foizni tashkil qilarkin?”, degan savol beixtiyor xayolingizga kelishi aniq. Bu esa, o‘z navbatida, yana bir bor tadbirkor ma’naviyati, ushbu soha vakillarining Vatan va xalq oldidagi ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘usini to‘g‘ri shakllantirish zarurati bilan bog‘liq masalaning nihoyatda dolzarbligidan dalolat beradi.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda “Namanganda qalbaki dori vositalarini tayyorlash va sotish bilan shug‘ullangan tibbiyot xodimi ushlandi”, degan xabar tarqaldi. Unga ko‘ra, davlat organlari hamkorlikda o‘tkazgan tezkor tadbirda “Zodak”, “Anaferon”, “Xilak Forte” va “Vitamin B6” nomli qalbaki dori vositalarini tayyorlash hamda sotish bilan shug‘ullangan tibbiyot xodimining faoliyatiga chek qo‘yilgan. U 1000 dona qalbaki “Zodak” dori vositasini Andijon viloyatiga sotish maqsadida olib ketmoqchi bo‘lgan vaqtida qo‘lga olingan. Xonadonidan dori vositalari ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan yashirin sex, 763 dona “Anaferon”, 2125 dona “Zodak”, 4000 dona “Vitamin B6” dori vositalari, 570 dona nomsiz flakonlarda siroplar, dori vositalarini qadoqlashda foydalaniladigan qutilar, yo‘riqnoma va yorliqlar topilgan. Inson hayotini xavf ostiga qo‘yadigan faoliyatni 2023-yil sentabridan buyon tizimli yo‘lga qo‘ygan bu “tadbirkor” tibbiyot xodimini Andijon viloyatida yashovchi o‘ziga o‘xshagan fuqarolar Qirg‘iz Respublikasidan noqonuniy yo‘llar bilan olib kelingan xomashyo bilan ta’minlab turgan. Hozirda holat yuzasidan Jinoyat kodeksining tegishli modda va bandlari bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilib, mazkur shaxsga nisbatan qamoq ehtiyot chorasi qo‘llanilgan.

Xo‘sh, keyingi yillarda yurtimizda aholini sog‘lomlashtirishga doir keng qamrovli islohotlar amalga oshirilayotgan, davlatimizning bu boradagi ko‘plab dastur va loyihalari ishlab chiqilib hayotga tatbiq etilayotgan, ushbu yo‘nalishga trillionlab mablag‘ sarflanayotgan bir paytda bunday noma’qulchilik uchun davlat tashkilotlarini ayblash qanchalik to‘g‘ri bo‘larkin? Bunda aslida davlat yoki jamiyat emas, balki inson omili, aniq bir kimsalarning noqonuniy va ma’naviyat mezonlariga mutlaqo mos kelmaydigan faoliyatni amalga oshirayotgani sababchi emasmi? Bu taxlit “tadbirkorlik” mamlakatimizda o‘z zimmasidagi vazifalarni chin dildan ado etayotgan ko‘plab ishbilarmon va tadbirkorlarning ma’naviy qiyofasiga soya soladi va obro‘sizlantiradi, albatta.

Yana bir misol. Keyingi yillarda maktabgacha ta’lim sohasiga nihoyatda katta e’tibor qaratildi, bolajonlarimizni ushbu tizim bilan qamrab olish darajasi bir necha barobar ortdi. Sohada faoliyat olib borayotgan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari — MTTlar soni 27 mingdan oshdi va ular barcha turdagi soliqlardan ozod qilingan. 2023-yilda ularga davlat hisobidan va sherikchilik sharnomasi asosida juda katta miqdorda, ya’ni 2,7 trillion so‘m mablag‘ ajratilgani bu boradagi g‘amxo‘rlikning yaqqol namunasidir.

Ammo ma’lumotlarga qaraganda, 2023-yil 27-dekabrgacha ba’zi oilaviy bog‘chalar egalari turli noqonuniy yo‘llar bilan davlat hisobidan 30 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ni o‘zlashtirgan, 1,5 mingdan ziyod xususiy “bog‘cha”lar noqonuniy faoliyat yuritgan. Xo‘sh, bunda aybdor kim yoki ushbu holatning sababi nima deb o‘ylaysiz? Davlat hamma sharoitni yaratayotgan bo‘lsa, shu yo‘nalishdagi vazirlik va idora ishga mas’uliyat bilan yondashayotgan bo‘lsa, gap nimada?

Xolisona aytganda, bu borada aynan ushbu yo‘nalishdagi vazirlikning sa’y-harakati bilan 2023-yilda 734 ta MTT tomonidan bir bolaning surati o‘rniga boshqa bolaning suratini joylashtirish asosida davomat belgilanib kelgani aniqlanib, ularga nisbatan 8,8 milliard so‘m subsidiya to‘lovlari to‘xtatilgan. 895 ta oilaviy MTT tomonidan vositachilar yordamida kompyuterda virtual mobil qurilmani yaratish orqali haqiqatda MTTga kelmagan tarbiyalanuvchi va xodimlarning davomati soxtalashtirilgani ma’lum bo‘lgan. Ularga ogohlantirish xatlari jo‘natilgan va asoslanmagan subsidiya moliyalashtirilishining oldi olingan. Ushbu ma’lumotlar tegishli tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etilgan.

> Dunyo mamlakatlari biznes sohasining korrupsiyalashganlik darajasi umumiy ko‘rsatkichlariga ko‘ra, ushbu illat hamma joyda, ish boshlashdan oldingi litsenziyalar olishdan tortib shartnomalar va sud jarayonigacha ro‘y berishi mumkin. Xalqaro ekspertlar jamiyatida bu borada shakllangan xulosaga ko‘ra, biznesdagi korrupsiya sabablari xilma-xil tarzda namoyon bo‘ladi.

Aslida, bunday holatlar ro‘y berayotgani ushbu sohalardagi vazirlik yoki idoralar faoliyatida yo‘l qo‘yilayotgan xato yoki kamchilik bilan emas, balki nima qilib va qanday yo‘llar bilan bo‘lsa-da, foyda olish, boylik orttirish ilinjidagi ayrim vijdonsiz kishilar, ya’ni inson omili bilan uzviy bog‘liq ekani shubhasiz. Bu borada hamma balo, bir tomondan, asrlardan meros bo‘lib kelayotgan “qing‘ir yo‘llar bilan boylik orttirish” va ikkinchidan, sobiq ittifoqdan qolgan “budjetdan yulib qolish” kabi kasalliklarning ba’zi kishilar ongida haligacha barham topmaganida.

Ma’lumki, sobiq ittifoq davrida jamiyatni sun’iy tarzda turli sinflarga ajratib, xususiy mulk va tadbirkorlikni yo‘qotish g‘oyasi amaliyotga tatbiq etildi. Siyosiy va mafkuraviy maqsadlarga xizmat qilgan bu g‘oya, avvalo, jamiyat a’zolarini mulkdan begonalashtirdi, tadbirkorlar va mulk egalariga zararli qatlam sifatida qarashni shakllantirdi. Natijada hayotda mulkdan begonalashish tuyg‘usi mustahkamlanib bordi va “Mulk hammaniki, ayni paytda hech kimniki emas”, degan aqida odamlar ongiga singdirildi. Tadbirkor va ishbilarmon kishilar bo‘lgan mulk egalarining oriyatli va vijdonli inson sifatidagi qiyofasidan asar ham qolmadi, Vatanni sevish, el-yurt oldidagi ma’naviy qarzdorlik va o‘z xalqiga sadoqat tuyg‘ulari xiralashdi.

Sobiq sho‘rolar davri xususiy mulkni va mulkdorlarni yo‘qotdi, tadbirkorlikni tag-tugi bilan quritdi, odamlarni davlatga boqimanda qildi. Bugun u tuzum yo‘q, uning davri o‘tdi. Falsafada “Zamon o‘zgaradi, ammo odamlar qoladi. Bundagi eng qiyin ish odamlarning ongi va tafakkurini o‘zgartirishdir”, degan tamoyil bejiz shakllanmagan. Xalqimizning “Tog‘ o‘zgaribdi desa ishon, ammo odamlar o‘zgaribdi desa ishonma”, degan hikmati ham ana shu jarayonni yaqqol ifodalaydi.

Maktabgacha ta’lim tizimiga yuksak e’tibor berilayotgani va unga katta mablag‘ ajratilayotganidan boxabar ba’zi “uchar”larning bir yumalab tadbirkor bo‘lib olgani va qing‘ir yo‘llardan borayotgani ham shundan.

Bu esa, butun jamiyat miqyosida ma’naviy tarbiya masalasining nihoyatda dolzarbligini va har bir fuqaro, jumladan, ishbilarmon va tadbirkorlar qatlamining ma’naviy qiyofasida mazkur fenomen bilan bog‘liq ijobiy xislatlarni shakllantirish va kamol toptirish zarurati hali-hanuz saqlanib qolayotganini anglatadi.

KORRUPSIYA BALOSI

Tadbirkorlar ma’naviy dunyosining rivojlanishiga xalqit beradigan omillar orasida korrupsiya balosi va uning oqibatlari, qonun va huquqni anglash darajasining yetarli emasligi, globallashuv tahdidlari va g‘oyasizlik xatarlari alohida diqqatni talab qiladi. Ular boshqa salbiy omillar bilan birga tadbirkorlarning ongi va dunyoqarashiga ta’sir o‘tkazadi, bu jabha vakillarining kundalik hayoti va faoliyatida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

Korrupsiya muammosiga jahonning deyarli har bir mamlakatida duch kelish mumkin va bugungi kunda u tadbirkorlikning asosiy kushandasiga aylandi. U so‘nggi yillarda xalqaro miqyosda transmilliy jinoyat sifatida keng muhokama qilinmoqda. Korrupsiya keltiradigan zarar barcha uchun teng sanalib, mazkur illatning turli sohalarga, xususan, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy jabhalarda amalga oshirilayotgan islohotlarga, mamlakatning xalqaro maydondagi imiji va investitsiyaviy jozibadorligiga, ayni paytda tadbirkorlik sohasiga ham jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatishi ma’lum.

Hozirgi globallashuv zamoni, mintaqalar va davlatlararo integratsiya jadallashib borayotgan murakkab bir sharoitda korrupsiya barcha mamlakatlarda ham qator muammolarni keltirib chiqarib, jamiyatni ich-ichidan yemirib, parokanda qilib tashlash xavfini solyapti. Binobarin, bugun kattami-kichikmi, boymi-kambag‘almi, qudratlimi-kuchsizmi, bironta davlatni korrupsiyadan xoli hudud, deb aytolmaymiz. BMT va Xalqaro valyuta jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra, jahon iqtisodiyoti korrupsiya tufayli yiliga 1,5-2,6 trillion dollargacha zarar ko‘rmoqda.

Jahon mehnat tashkiloti tomonidan muttasil o‘rganib boriladigan mavzulardan biri, ya’ni biznes sohasining korrupsiyalashganlik darajasi monitoringi umumiy ko‘rsatkichlariga ko‘ra, poraxo‘rlik barcha sohalarda tadbirkorlik faoliyatining ma’naviy asoslarini yemiradi, uning xalq oldidagi obro‘siga putur yetkazadi. Ayni paytda u xalqaro huquq sohasida tadbirkorning bu boradagi qonuniy huquq va manfaatlariga daxl qiladigan eng xavfli jinoiy hodisalardan biri sifatida baholanadi.

Chunki u butun mamlakat miqyosida tadbirkorlik rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, qonun ustuvorligini zaiflashtiradi, pirovardida, haqiqiy tadbirkorlar huquq va erkinliklari poymol bo‘lishiga olib keladi. Shuning uchun ham Prezidentimiz yangi davr boshlanishidayoq **“Jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi”**, deya alohida ta’kidlagani bejiz emas.

Keyingi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi keskin va murosasiz kurash olib borilmoqda. Xususan, “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi, shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasining tashkil etilishi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturining tasdiqlanishi yurtimizda bu illat bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilishini ta’minladi.

Misol uchun, qisqa vaqt ichida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid bir nechta normativ-huquqiy hujjat, jumladan, “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi, “Ma’muriy tartib-taomillar to‘g‘risida”gi, “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi.

Prezidentimizning “O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni esa bu boradagi izchil sa’y-harakatlarning mantiqiy davomidir. Undan ko‘zlangan asosiy maqsad yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada oshirish, eng yuqori darajadagi qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imijini oshirish va mustahkamlashga qaratilgan.

Dunyo mamlakatlari biznes sohasining korrupsiyalashganlik darajasi umumiy ko‘rsatkichlariga ko‘ra, ushbu illat hamma joyda, ish boshlashdan oldingi litsenziyalar olishdan tortib shartnomalar va sud jarayonigacha ro‘y berishi mumkin. Xalqaro ekspertlar jamiyatida bu borada shakllangan xulosaga ko‘ra, biznesdagi korrupsiya sabablari xilma-xil tarzda namoyon bo‘ladi.

REYTINGNING MA’NAVIY KUCHI

Keyingi yillarda yetuk tadbirkorlik ma’naviyatini taqozo etadigan sohalarni tizimli rivojlantirish, biznes uchun sharoitni izchil yaxshilab borish davlatimiz iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada, ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy jihatlariga asoslanadigan va o‘z navbatida, bu soha vakillarining ma’naviy qiyofasiga katta ta’sir ko‘rsatadigan barqarorlik reytingi joriy etilishi mazkur yo‘nalishdagi muhim yangiliklardan biri bo‘ldi.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 23-yanvardagi “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori buning yaqqol dalilidir. Ushbu hujjatga ko‘ra, qonunchilikka amal qilib ishlayotgan tadbirkorlarni aniqlash va rag‘batlantirishni nazarda tutuvchi Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi 1-fevraldan joriy etilishi belgilandi. 2024-yil 1-apreldan tadbirkorlarga subsidiya, imtiyoz va preferensiyalar ularning reyting darajasidan kelib chiqqan holda joriy etila boshlaydi.

Aslida, bu haqda Prezidentimizning o‘tgan yili tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida aytilgan va shundan so‘ng ushbu reyting mezon va tartib-tamoyillari ishlab chiqila boshlagan edi. Shu asosda qabul qilingan Prezident qaroriga ko‘ra, tadbirkorlar faoliyat davri, rentabellik darajasi, to‘lov intizomi, aholi bandligidagi o‘rni va ish haqi kabi 23 ta mezon asosida 4 toifaga ajratiladi. Bunday reyting soliq, adliya va sud organlari ma’lumotlari asosida shakllanadi. Har bir tadbirkor o‘z o‘rni va bahosini, ya’ni aniq reyting darajasini real vaqtda bilib borishi mumkin bo‘ladi.

Qarorga binoan, reytingi yuqori tadbirkorlar uchun barcha soliq tekshiruvlari bekor bo‘ladi, qo‘shimcha qiymat solig‘i summasi bir kunda va boshqa soliq turlari bo‘yicha ortiqcha to‘lov uch kunda qaytarib beriladi. Tovarlarni import qilish va sotishda qo‘shimcha qiymat solig‘ini bojxona va soliq organlarida o‘zaro hisobga olish imkoniyati yaratiladi. Auksionda olingan davlat aktivlari va yer uchastkalari qiymatini bo‘lib to‘lash muddati 3 yildan 5 yilgacha uzaytiriladi. Bunda kamida 15 foiz miqdorida dastlabki to‘lovni bir yo‘la amalga oshirganda, qolgan summaga yillik foizlar hisoblanmaydi.

Ushbu yo‘nalishdagi jahon tajribasini o‘rganish bunday reytingga tayanadigan tadbirkor ma’naviyati o‘ziga xos regulyativ funksiyani ham bajarishidan dalolat beradi. Ya’ni reyting joriy qilinishi muayyan tadbirkorlik subyekti va bu soha bilan mashg‘ul shaxslar va jamoalar faoliyatini mavjud ma’naviy-axloqiy tamoyil va talablar asosida boshqarib turishga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqorida qayd etilganlar o‘z navbatida, mamlakatimizda tadbirkorlar ma’naviyatini samarali shakllantirish borasida jamoatchilik fikri ta’sirini oshirish va qonun ijodkorligi sohasidagi ishlarni yanada kuchaytirish lozimligidan dalolat beradi. Ushbu yo‘nalishda keyingi yillarda tez-tez tilga olinayotgan **“Tadbirkorlik kodeksi”**ni ishlab chiqish borasidagi faoliyatni jadallashtirish lozimligi ham davr talabiga aylandi.

Shu bilan birga, bugungi kunda ma’naviyat yo‘nalishida ham qonun ijodkorligini kuchaytirish, davlatimizning ushbu sohadagi siyosatining asoslariga doir **“Ma’naviyat va ma’naviy faoliyat to‘g‘risida”** qonunni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan eng muhim va obyektiv zaruratlardan biriga aylanganidan dalolat beradi.

Hali agrar sohada amalga oshiriladigan ishlar juda ko‘p va ularning aksariyati qabul qilingan hujjatlar bilan asoslanib, yo‘nalishlar belgilab olinmoqda. Jumladan, yaqin o‘n yillikdagi vazifalarimiz O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida mustahkamlab qo‘yilgan.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 14-fevral, 32-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Qishloq xo‘jaligi

BIZNI SINOVLARDAN NIMA QUTQARADI?

Bugun ilm-fan va innovatsiya har qachongidan ahamiyatli bo‘lib bormoqda

Alisher SHUKUROV,
qishloq xo‘jaligi vaziri o‘rinbosari

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz raisligida kuni kecha qishloq xo‘jaligida yangi zaxiralarni ishga solish hamda 2024-yilgi ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida asosiy e’tibor ana shu masalalarga, xususan, qishloq xo‘jaligida unumdorlikni oshirish, tannarxni kamaytirish, suvni tejashga qaratilib, galdagi vazifalar belgilandi. Yer va suv resurslari cheklangan sharoitda yangicha ishlab, mahsulotni ko‘paytirish, sohaga sanoat muhitini olib kirish zarurligi ta’kidlandi. Masalan, yurtimizda bir gektar maydondan olinadigan o‘rtacha hosil ilg‘or mamlakatlardagiga qaraganda kam. Lekin o‘g‘it ham, yoqilg‘i ham, suv ham 2 karra ko‘p ishlatiladi. Shu bois, xorijdan serunum chigit va urug‘lar olib kelib, dehqonlarni yangi agrotexnologiyalarga o‘qitib, hosildorlikni paxtada 50 sentner, g‘allada 100 sentnerga yetkazish mumkinligi aytildi.

Respublikamiz jami sug‘oriladigan maydoni 4,3 million gektarni tashkil etadi. Afsuski, ularning salkam yarmi turli darajada sho‘rlangan. O‘ziga xos paradoks: iste’molchilar soni ko‘payyapti, mahsulot yetishtirish imkoniyatimiz esa kamayyapti. Nima qilmoq kerak?! Bunday sharoitda, birinchi navbatda, ilm-fanga tayaniladi, suyaniladi. Ya’ni sohaga zamonaviy ilmiy ishlanmalarni, innovatsion g‘oyalarni qo‘llash orqaligina masalaga yechim topish mumkin. Boshqa yo‘l yo‘q. Shu o‘rinda Imom Buxoriyning o‘n ikki asr avval “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay”, degan fikrini qo‘llasak xato bo‘lmas. Zotan, ilm-ma’rifat insonni kamolotga undash barobarida, tarmoqlarni, sohalarni yangilikka yetaklovchi ne’matdir.

Bugungi kunda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar ayni shunga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Maqsad tabiiy manba — yer va suvdan samaraliroq foydalanish orqali har qachongidan barakaliroq hosil olish.

Qisqasi, hali agrar sohada amalga oshiriladigan ishlar juda ko‘p va ularning aksariyati qabul qilingan hujjatlar bilan asoslanib, yo‘nalishlar belgilab olinmoqda. Jumladan, yaqin o‘n yillikdagi vazifalarimiz O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida mustahkamlab qo‘yilgan.

Aytish joizki, strategiyada qayd etilgan vazifalarning ayrimlari allaqachon amaliyotga kiritilgan, ba’zilari tajriba-sinov tariqasida qo‘llanilmoqda. Ya’ni jarayon izchil davom etmoqda.

Barcha xizmatlarni bir joyga jamlovchi platforma

Yig‘ilishda qishloq xo‘jaligi ham miqdor, ham samaradorlik jihatidan rivojlanayotgani qayd etilib, klaster tizimi orqali yuqori unumli texnika va chuqur qayta ishlash kirib kelayotgani aytildi. Jumladan, 2023-yilda sohada ishlab chiqarish 4,1 foizga o‘sib, 426 trillion so‘mni tashkil qildi. Eksport esa qariyb 2 milliard dollarga yetdi. 152 ming gektar bog‘ va tokzorlar barpo etilib, 185 ming tonna meva-sabzavot, 31 ming tonna go‘sht va 485 ming tonna sutni qayta ishlash quvvatlari ishga tushirildi. Yaqin tariximizda ilk bor paxtadan 3 million 700 ming tonna, g‘alladan 8 million tonna hosil olindi.

Aholi bandligi va oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlovchi soha — qishloq xo‘jaligi, aslida, davlatimiz rahbarining doimiy e’tiborida. Bundan bir muddat oldin, ya’ni joriy yilning 16-yanvar kuni 2024-yilda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash bo‘yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida agrar sohadagi o‘zgarishlarga ham alohida to‘xtalinib, vazirligimiz zimmasiga qo‘shimcha vazifa va ko‘rsatmalar berilgan edi. Shu bois, qishloq xo‘jaligi sohasini tubdan raqamlashtirish, eng so‘nggi ilg‘or dasturiy yechimlarni keng tatbiq etish, xodimlar, ayniqsa, yosh kadrlar ilmiy salohiyatini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratilyapti.

Bugungi kunda jahonda “aqlli” qishloq xo‘jaligi jadallik bilan taraqqiy etmoqda. Ayniqsa, AQSH, Xitoy, Avstraliya, Niderlandiya bu borada yetakchilik qilyapti. Ushbu mamlakatlar qishloq xo‘jaligining tarmoqlari ilg‘or innovatsion uskunalar yordamida avtomatlashtirilgan.

Biroq xalqaro miqyosda qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq jiddiy muammolar ham ortib boryapti. Iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, oziq-ovqat xavfsizligi, mahsulotlar sifatini saqlash kabilar shular jumlasidan. Afsuski, bular biz uchun ham begona emas. Mazkur muammolarga ijobiy yechim topish yangicha bilim, ilmiy tadqiqot hamda innovatsiyalarni talab etadi.

Yangi innovatsiyalar, avvalo, oliy ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarida ildiz otadi. Bugun yoshlarimizni har tomonlama bilimli, jahondagi eng ilg‘or tengdoshlari kabi fikrlay olish darajasiga olib chiqsakkina, yuqoridagi muammolarni bartaraf eta olamiz. Shu bois, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida ham hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan jahon ilm-fan yutuqlaridan ortda qolmaslik uchun integratsiyalashuv islohotlarini amalga oshirish talab etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan Qishloq xo‘jaligi vazirligining barcha tizim tashkilotlari ishlab chiqilayotgan “Raqamli qishloq xo‘jaligi” integratsion platformasida birlashtirilib, soha tarmoqlarini axborot texnologiyalari orqali rivojlanishi hamda yagona elekron bazada tezkor axborot almashinuvini ta’minlash orqali mehnat samaradorligini oshirish ko‘zda tutilmoqda. Buning uchun esa malakali, rivojlangan davlatlar agrar sohasini hamda yurtimiz iqlimi va tuprog‘i tarkibini yaxshi biladigan, ilg‘or texnologiyalardan mukammal foydalana oladigan kadrlarga katta ehtiyoj tug‘iladi.

“Raqamli qishloq xo‘jaligi” integratsion platformasi orqali soha tashkilotlariga yo‘llangan murojaatlar bitta bazaga jamlandi. Endilikda ularni tegishli tartibda o‘rganish va tezkor tarzda ijobiy hal etish uchun qator qulayliklar vujudga keldi. Bir so‘z bilan aytganda, murojaatlar bilan ishlash samaradorligiga erishildi.

Vazirlik va uning tizim tashkilotlari hamda hududiy boshqarmalarda mavjud bo‘lgan murojaatlar bilan ishlash, axborot xizmatlari, yuridik ta’minlash kabi bo‘limlar bir-biri bilan integratsiyalanib, ularning tizimli ishlashi yo‘lga qo‘yiladi. Bu ish sifatining oshishiga olib keladi.

“Raqamli qishloq xo‘jaligi” yagona integratsion platformasi orqali murojaatlarda ko‘tarilayotgan masalalar ko‘lami aniqlashtiriladi, vujudga kelayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishni kompleks tahlil qilish ishlari soddalashadi. Ya’ni asosiy maqsad — kamroq vaqtda ko‘proq natijaga erishiladi.

Shuningdek, murojaatlarni ko‘rib chiqishda korrupsiyaviy holatlarning oldi olinadi. Bundan tashqari, mazkur tizim aynan bir shaxs tomonidan tuman, viloyat va respublika miqyosidagi davlat organlariga yuborgan bir xil mazmundagi murojaatni ushbu organlar tomonidan alohida va parallel ravishda ko‘rib chiqilishining oldini oladi, samaradorlikni oshiradi.

Ilmiy salohiyat izchil tahlil qilib boriladi

Hozirgi paytda qishloq xo‘jaligi tizimida 10 ta oliy ta’lim muassasasi, 26 ta professional ta’lim maskani, 21 ta ilmiy-tadqiqot instituti hamda 51 ta ilmiy-tajriba stansiyasi mavjud. Ularda faoliyat olib borayotgan 3 mingdan ziyod xodimning 790 nafari bevosita ilmiy izlanishlar bilan mashg‘ul.

So‘nggi yillarda vazirlik huzuridagi ilmiy-tadqiqot institutlarida faoliyat yuritayotgan agrar soha olimlari tomonidan tarmoq rivojiga xizmat qiluvchi bir-biridan dolzarb ilmiy ishlanmalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, paxtachilik, g‘allachilik, meva-sabzavot, bog‘dorchilik hamda uzumchilik kabi yo‘nalishlarda serhosil va xaridorgir navlarga asos solindi. Eng muhimi, ushbu jarayonga iqtidorli yoshlar keng jalb etilib, ilm-fan va amaliyot uyg‘unligiga ahamiyat qaratilmoqda.

Yoshlar salohiyatini yuksaltirish, sohada “Ustoz-shogird” an’anasini yo‘lga qo‘yish maqsadida tizimdagi barcha oliy ta’lim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari vazirlik huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markaziga birlashtirilmoqda. Pirovardida, fundamental tadqiqotlar bilan ishlab chiqarish jarayonlari uyg‘unlashadi, rivojlangan mamlakatlar ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik qilish hamda innovatsion ishlanmalarni shu yerning o‘zida amaliyotga tatbiq etish imkoniyati vujudga keladi.

Ayni paytda vazirlik tizimidagi ta’lim muassasalarining moddiy texnik bazasini yangilash, ta’lim sifatini yanada oshirish, qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga ixtisoslashgan innovatsion ishlanmalarni tatbiq etish ishlariga ustuvor maqsad sifatida qaralmoqda. Shu bois, vazirligimizda tuzilgan ishchi guruh vakillariga ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlash, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarini hozirgi dunyo ta’lim standartlariga moslashtirish, talabalarning sohaga qiziqishini oshirish va bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash darajasini kafolatlash uchun biriktirib berildi. Bundan ko‘zlangan maqsad vazir o‘rinbosarlari, boshqarma boshliqlari va ta’lim maskani rahbari o‘z yo‘nalishidan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalarining bakalavr, magistratura yo‘nalishlaridagi ishlar va ularning o‘quv dasturlari bilan tanishib, ular bugungi zamon talabiga mos va mos emasligini ko‘rib chiqadi. Bundan tashqari, qaysi ilm dargohida iqlim o‘zgarishi, “aqlli” qishloq xo‘jaligi, IT sohalaridan kelib chiqib qanday zamonaviy ta’lim yo‘nalishlari ochilgani haqida o‘rganishlar olib boriladi.

Shu bilan birga, o‘qitish sifati, talabalar saviyasi o‘rganiladi. Ilm maskanlarining xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik darajasi tahlil qilinadi. Ishchi guruhning xulosalari bilan o‘quv maskanlarni uslubiy rivojlantirish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Ushbu chora-tadbirlar asosida ilmiy dargohlar moddiy-texnik bazasi yangilanib, o‘quv sifati oshiriladi, xalqaro aloqalarini rivojlantirish bo‘yicha ko‘maklashiladi.

Shuning uchun ayni paytda tizimdagi ta’lim muassasalari ilmiy salohiyati oshirilib, uslubiy qo‘llanmalar jahon ta’lim standartlariga moslashtirilmoqda. Qolaversa, yoshlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanishi uchun barcha zarur choralar ko‘rilmoqda.

Yana bir gap. Prezidentimizning Xitoy Xalq Respublikasiga amalga oshirgan tashrifi doirasida Pekin shahrida O‘zbekiston — Xitoy agrar ta’lim forumi ham bo‘lib o‘tdi. Unda Xitoyning agrar yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, eng so‘nggi texnologiyalarni o‘zaro transferi to‘g‘risida fikr almashinuvi yo‘lga qo‘yilishi ma’lum qilindi.

Shu o‘rinda, aytish kerakki, Toshkent davlat agrar universiteti hozirda Shimoli-G‘arbiy Qishloq va o‘rmon xo‘jaligi universiteti hamda Sinszyan universiteti bilan bir qator hamkorlik loyihalarini amalga oshirmoqda.

Shuningdek, vazirlik delegatsiyasi xitoylik hamkasblari, ishbilarmon doira vakillari bilan uchrashuvda suv tejovchi texnologiyalar, urug‘chilik, chorvachilik, mahsulotlarni qayta ishlash, yer holatini tiklashga yo‘naltirilgan ishlanmalar, mevali ko‘chatlar yetishtirish, issiqxona xo‘jaliklari, agrologistika markazlari, innovatsion laboratoriyalar tashkil etish, bog‘ va uzumzorlarni “aqlli” boshqarish tizimlari kabi yo‘nalishlarda muzokaralar o‘tkazdi. Ahamiyatlisi, xitoylik ishbilarmonlar ushbu tajribalarni mamlakatimiz qishloq xo‘jaligiga tatbiq etish istagini bildirdi. Bu esa sohaga zamonaviy ish uslubini yanada kengroq qo‘llashda ayni muddaodir.

Qishloq xo‘jaligida ishga solinmagan yangi zaxiralarni safarbar etish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishida sohaga doir yana ko‘plab masalalar ko‘tarildi. Xususan, fermerlar manfaatdorligiga alohida e’tibor qaratildi. Manfaatdorlikni yanada oshirish uchun bu yil paxtachilikda bo‘lgani kabi g‘alla yetishtirishda ham imtiyozli kreditni to‘g‘ridan-to‘g‘ri fermerga berish tizimi joriy qilinishi aytildi. Bundan tashqari, davlat resursi uchun xarid qilingan bug‘doyni daladan tashib kelish va saqlash xarajati ham to‘liq budjetdan qoplanadi.

Shu bilan birga, mineral o‘g‘it sifati va ustamasi alohida nazoratga olinadi. Fermerlarga o‘z hisobidan o‘g‘it sotib olish bo‘yicha qulaylik yaratiladi. Endilikda oldingi qarzini 1-aprelgacha to‘liq to‘lamagan klaster bilan fyuchers shartnomasi bekor qilinadi va fermerga paxtani birjada sotishga ruxsat beriladi. Ma’lumotni elektron platformaga kiritgan va fyuchers shartnoma imzolagan fermerga kredit ko‘pi bilan uch kun ichida ajratilishi shart etib belgilandi.

Chorvachilik, ipakchilik va baliqchilik tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlash choralari ham qayd etib o‘tildi. Investitsiyalarni faol jalb etish orqali sohada ishlab chiqarish hajmini oshirish choralari ko‘rsatildi. Bular esa oldinda qilinajak ishlar hali ko‘p ekanini anglatadi.

Tabiat

Himoyachi

Jarqo‘rg‘on tumanidagi “Oqtepa” o‘rmon xo‘jaligi o‘ziga xos landshafti bilan mamlakatimizdagi boshqa tabiat maskanlaridan tubdan farq qiladi. To‘rt tomon cho‘l-u biyobon, o‘rtada yastangan zilol ko‘l atrofi quyuq o‘rmonzor. Bu o‘rmonga izoh shart emas: inson qo‘li bilan yaratilgan tabiat mo‘jizasi! Shunday bo‘lishi ham mumkinmi, axir ming yilliklar davomida saqlanib kelgan quyuq o‘rmonlar insoniyat ko‘z o‘ngida tog‘larga chekinib, tugab borayotgan bir zamonda-ya? Bo‘lishi mumkin.

Jarqo‘rg‘onlik Aleksandr Fedin — mahalliy aholi “Sasha aka” sifatida taniydigan tabiat jonkuyari bunga nafaqat ishonadi, balki ma’lum bir manzillarni, butun mamlakatni “Yashil makon”ga aylantirish mumkinligini ham boshqalarga aytishdan charchamaydi. Negaki, Jarqo‘rg‘ondek quruq iqlimli hududda bundan 35 yil muqaddam o‘rmon yaratish tashabbusi bir qator tabiat jonkuyarlari tomonidan ilgari surilganida ko‘pchilik ishonqiramay, kulimsirab nari ketishgandi. Ammo oradan chorak asr o‘tib, o‘sha ishonmaganlar hayratdan yoqa ushlab, endi ham nari ketishayotganligi-da bor gap.

Sasha aka yaqinda ijtimoiy tarmoq orqali davlatimiz rahbari tomonidan Mo‘ynoqda, Orolbo‘yining flora va faunasini yaxshilash bo‘yicha olib borilayotgan dastur doirasida ekilgan millionlab ko‘chatlarning sun’iy yo‘ldoshdan olingan tasvirlarini ko‘rib, bir necha kun xushnudlikdan uchib-qo‘nib yurdi.

U Orol dengizini qutqarish tobora imkonsiz bir vaziyatda, borini asrab qolish, yangi loyihalar bilan fojia ta’sirini yanada kamaytirish va yaxshilash, to‘qayzorlar barpo etish zarur, deb hisoblaydi. Bundan o‘ttiz yil avval mavsumiy suv yig‘iladigan “Oqtepa” suv ombori qirg‘oqlari atrofiga daraxtlar ekilib, u yerda o‘rmon xo‘jaligi yuzaga kelganini misol qilib keltiradi.

A.Fedin 1989-yilning boshida mavsumiy suv yig‘iladigan, qoq cho‘l o‘rtasida bo‘lgani sababli ko‘lami ham va foydasi kam “Jarqo‘rg‘on” suv omborining sohilida o‘rmon yaratish maqsadida 4 gektar yer so‘rab murojaat qildi. O‘shanda o‘ttiz yoshda edi.

Orzusi ro‘yobga chiqa boshlagan kishining g‘ayrati oshadi. Qadagan nihollari yerga ildiz otib, ko‘kka bo‘y cho‘za boshladi. Yana bir yil o‘tib, mas’ullar uning avvaliga erish, uddalab bo‘lmasdek tuyulgan rejasi amalga osha boshlaganiga guvoh bo‘ldi va yana 80 gektar yer qo‘shib berishdi.

Ko‘p o‘tmay 84 gektarlik chinakam o‘rmonzor barpo etildi. Biroq ko‘zga tashlanib qolgan quyuq o‘rmon, ba’zi o‘sha davr “kattakon”lari uchun tayyor “pishgan osh” edi. Bu kichik olam bag‘rida qo‘nim topgan jonivorlarni ovlash ilinjidagilar ham, afsuski, topila boshladi.

O‘ttiz turga yaqin jonivorlarga suqlanib qarovchilar, 500 turdagi daraxtni o‘z manfaati uchun ishlatishni zimdan ko‘zlab yurganlar yo‘q edi, deysizmi?! Mehnati singgan odam farzandlaridek bo‘lib qolgan bu yashillikni beta’ma qo‘riqladi. Axir bu yerdagi daraxtlarning 50 turdagisi, jonivorlarning esa 12 turdagisi O‘zbekiston “Qizil kitobi”ga kiritilgan. Ularni ko‘paytirish o‘rniga allaqanday brokonyer yoki kundakesarga o‘lja qilib bersinmi? Yo‘l qo‘ymadi.

O‘rmon kengaygan sari uning bag‘riga intiluvchi hayvonot olami vakillari soni chandon oshib bordi. Ayni paytda bundan shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalanishni ko‘zlagan insonlar ham yo‘q emasdi. Kimdir ma’lum to‘lov evaziga molini o‘tlatmoqchi, yana birov oilaviy dam olish maskani qurish uchun xufiyona kelishmoqchi bo‘ldi. Azim daraxtlarni o‘tin uchun kesib, evaziga uni “rozi qilmoqchi” bo‘lgan “uchar”lar ham topildi. Lekin Sasha aka ahdida sobit qoldi. Uni hech narsa bilan o‘zgartirib bo‘lmadi.

Bu hududda bugungi kunda Finlyandiya, Rossiya, Norvegiya, Xitoy kabi davlatlardan tabiatshunos yosh olimlar kelib ilmiy tadqiqotlar o‘tkazmoqda. O‘simlik va hayvonot olamining yangi turlarini o‘rganyapti. Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti bilan hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, u har yili tashkilotlarga, aholiga mingdan ziyod bepul ko‘chatlar yetkazib beradi.

Ochig‘i, Aleksandr Fedin asli Rossiyada tug‘ilgan, bolaligi Tojikistonda o‘tgan, esini taniganida esa Surxondaryoning Jarqo‘rg‘oniga kelib yashay boshlagan. U o‘zbek tengqurlari orasida voyaga yetdi: shu tilda o‘ylab, shu tilda so‘zlaydigan bo‘ldi. Tashqi ko‘rinishini aytmasa, so‘zlashuvidan jarqo‘rg‘onliklardan ajratish qiyin. Bolalik chog‘larida ota-onasi bilan tarixiy vataniga borganida cheksiz o‘rmonlarni tomosha qilar, uning bag‘ridagi turfa jonivorlar bilan xayolan suhbat qurardi. Shunday damlarda rus o‘rmonlari bag‘rida abadiy qolishni va tabiat bilan umrbod oshno bo‘lishni orzu qilar, ammo bu yoqdagi muhit, do‘stlarini ko‘zi qiymasdi. Keyin bolalarcha tasavvur bilan o‘ylardiki, o‘rmonzor bag‘riga kelolmas ekan, o‘rmonni hozirgi yashayotgan yurtiga ham ko‘chirsa bo‘ladi-ku? Eh-he, u necha yuzlab tunlarni tushlarida “Aloviddinning sehrli chirog‘i”, “Sehrli uzuk”lardan imdod kutib o‘tkazdi. Va oxir-oqibat astoydil urinsa, hech qanday sehrli kuch ishtirokisiz orzusiga yetishi mumkinligini angladi.

Qush parvozi. Aleksandr Fedin ularning parvozini kuzatib hamisha zavq tuyadi. O‘rmonni kuzatishimiz jarayonida O‘zbekiston iqlimi uchun yangi hisoblangan “chayka”, ya’ni chag‘alayni tomosha qilmoqchi bo‘ldik. Sasha aka bizga ularni uzoqdan ko‘rsatishga rozi bo‘ldi, ammo yaqiniga borishimizga astoydil qarshilik qildi: xuddi farzandlarini yot nigohlardan qo‘riyotgan ota singari. Uning aytishicha, hozir bu noyob qushlarning tuxum bosish-ko‘payish mavsumi. Ularni tinch va xotirjam qo‘yish lozim.

Mahalliy aholining unga “Sasha aka” deb murojaat qilishi yoqadi. Ayoli va farzandi hozir Tomsk shahrida yashaydi. Oilasi, qarindoshlari uning Rossiyaga qaytishini xohlashsa-da, o‘zining 35 yillik mehnati singan, mehr qo‘ygan ushbu maskanni tashlab ketishni ko‘zi qiymaydi.

Quyuq o‘rmonzorda joylashgan kichkina o‘rmonchilar uyida yashab kelayotgan maqolamiz qahramoniga germaniyalik do‘sti tomonidan sovg‘a qilingan “Jek” laqabli it doimiy hamroh va himoyachi.

Aleksandr Fedinning o‘zi esa 2023-yil yakuni bo‘yicha Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan “Tabiat himoyachisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanib, e’tirof etildi. Tabiat himoyachisining ko‘pchilikka ibrat bo‘lgulik zahmatli va fidokorona faoliyatiga, sobitqadam qarorlariga esa davlat himoyachi.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

2024-yil – Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili

MILLIY G‘URUR, MILLIY IFTIXOR – QUDRATLI KUCH

Shahlo HOSHIMOVA,
Iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash “Ulug‘bek” jamg‘armasi xodimi

Insonning insonligi uning aql-u zakovatida. Aql va zakovatni botiniy va zohiriy ilm bilan to‘ldirish uchun esa hamma zamonlarda ko‘p vaqt va eng qimmat xizmat turlari talab qilingan. Bu bosqichni misli ko‘rilmagan jasorat va zakovat bilan bosib o‘tgan shaxslar yuksak ma’naviy qiyofasi va ajoyib fazilatlari bilan boshqalarga o‘xshamaydi. Ular dunyoda hamma narsadan pulni afzal ko‘ruvchilardan tubdan farq qiladi.

Dunyo yaralgandan buyon ilm ummoni bitta. Unga har bir xalq vakillari o‘z ulushini qo‘shadi. Xalq esa o‘zining ana shu vakillari bilan faxrlanadi. Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan jarayonlar iqtisodiy, madaniy va ma’naviy tebranishlar ba’zan inson aqlini shoshirib qo‘ymoqda. Bunday vaziyat har bir tafakkurli kishini tezkor fikrlashga, voqealar rivojini tahlil qilishga undaydi. Geosiyosiy jarayonlar esa har bir davlatdan tashqi siyosiy va iqtisodiy maydonda faol bo‘lishni talab qilmoqda.

Bugun O‘zbekiston dunyo mamlakatlari orasida o‘zining aytar so‘zi-yu, o‘rniga ega. Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar ko‘lamini ko‘z oldimizga keltiradigan bo‘lsak, ko‘plab o‘zgarishlarning guvohi bo‘lamiz. Aytish lozimki, “Yangi O‘zbekiston” atamasi nafaqat bizning tilimizda balki dunyo hamjamiyati davlatlari lug‘atidan ham joy oldi.

“...Yangi O‘zbekistonni barpo etish — bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zaruratdir.

Yangi O‘zbekiston — demokratiya, inson huquq va erkinliklari borasida umume’tirof etilgan norma va prinsiplarga qat’iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do‘stona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo‘lgan davlatdir”, degan edi Prezidentimiz “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri savollariga javoblarida.

Bugun qo‘shni davlatlar bilan iliq qo‘shnichilik munosabatlari o‘rnatildi. Bu borada yillar davomida yig‘ilib qolgan muammolar hal etildi. Chegaralar ochildi. Savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarimiz jadal rivojlanyapti. Iqtisodiy sohada ham katta o‘zgarishlar yuz berdi. Matbuot va so‘z erkinligiga erishildi. Yaqin-yaqingacha “kambag‘al”, “kambag‘allik” degan so‘zni aytishdan o‘zimizni tortardik. Yurtimizda kambag‘allar bo‘lmagani uchun emas, balki bu so‘zni aytish mamlakatimiz siyosatiga to‘g‘ri kelmagani uchun aytishdan tiyilardik. Ammo kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi, deganlaridek, bor narsani yashirib bo‘lmas ekan. Bugun hukumat doiralarida ham haqiqiy ahvolga boricha yondashilyapti. Bundan tashqari, soliq, bojxona, iqtisodiyot, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi muhim tarmoqlarda jiddiy islohotlar jarayoni davom etmoqda. Bularning barchasi yangi O‘zbekistonni bunyodga keltirish yo‘lidagi ilk qadamlardir.

Davlatimiz nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda barcha sohalar qatori ma’naviy-ma’rifiy masalalarga oid tashabbuslarni ham dadil o‘rtaga qo‘ymoqda. Bu haqda so‘z yuritganda, BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasini qabul qilish bo‘yicha ilgari surilgan tashabbus xalqaro jamoatchilik tomonidan keng qo‘llab-quvvatlanib, bu bo‘yicha rezolyutsiya qabul qilinganini faxr bilan ta’kidlash mumkin. Shuningdek, Prezidentimizning Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ilm-fan, ta’lim, madaniyat va san’at sohalarini, shuningdek, turkiy dunyo birligini rivojlantirishga ulkan hissa qo‘shgan atoqli shaxslarni rag‘batlantirishga qaratilgan yana bir muhim tashabbusi qabul qilinib, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot ta’sis etildi.

Bugun xalqimiz buyuk kelajakka qat’iy ishonch bilan qarayotgan yangidan yangi g‘oyalar, ulkan maqsadlar bilan yashayotgan bir paytda bizni ruhlantiradigan, faoliyatimizga kuch quvvat beradigan omil milliy g‘urur hissidir.

Milliy g‘ururning yuqori cho‘qqisi — milliy iftixor. Bu millatni birlashtiradigan, ezgu maqsadlar va buyuk intilishlar atrofida jipslashtiradigan tuyg‘u. Milliy iftixor, bu — o‘tmishimiz, bugunimiz va istiqbolimizni o‘zaro bog‘laydigan, buyuk ajdodlarimizning umuminsoniy va umumdunyoviy xizmatlaridan faxrlanib, ularga munosib kelajakni bunyod etishga da’vat etadigan qudratli kuch. Milliy iftixor hissini har birimiz chuqur anglamog‘imiz, qalbimizning tub tubidan his etmog‘imiz, farzandlarimizni ham ana shunday ruhda va o‘lchovlar doirasida tarbiyalamog‘imiz zarur.

Mamlakatimizda yoshlar masalasiga davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarga yo‘l ochish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang takomillashib bormoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-yanvardagi “Iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash “Ulug‘bek” jamg‘armasi faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, mazkur jamg‘arma tomonidan olib boriladigan ishlar ko‘lami yanada kengaydi. Jamg‘arma qaysi sohada bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishishga intilayotgan, ilmiy izlanayotgan iste’dodli yoshlarga ko‘maklashishga harakat qilib kelmoqda va jamiyatda ziyoli qatlamning yanada kengayishi uchun bor imkoniyatlarni ishga solmoqda.

Iste’dodli yoshlarning ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun qulay sharoitlar yaratish, ularning ilmiy g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida har yili “Mirzo Ulug‘bek vorislari” respublika tanlovini tashkil etish belgilangan edi. Jamg‘arma xodimlari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo‘ylab barcha yoshlarni mazkur tanlovga jalb qilish yuzasidan doimiy ravishda targ‘ibot ishlari olib borildi. Xususan, 2022-2023-yillarda o‘tkazilgan tanlovda g‘olib bo‘lgan yoshlar maxsus sertifikat, esdalik sovg‘alari va pul mukofotlari bilan taqdirlandi, eng muhimi, yoshlar akademiyasiga qabul qilindi hamda g‘oyalarini amaliyotga joriy etishi uchun ularga yaqindan yordam ko‘rsatib kelinmoqda.

Hukumatning 2023-yil 19-maydagi “Mirzo Ulug‘bek vorislari” tayyorlov o‘quv kurslarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, shunday kurslar tashkil etilib, 60 nafar iqtidorli talaba tanlov asosida saralab olindi. 2023-2024-o‘quv yilida “Data Science” kurslari yo‘lga qo‘yildi. O‘qishga qabul qilinganlarning 30 nafarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda joylashgan oliy ta’lim muassasalari talabalari tashkil etgani sababli o‘qishi Toshkent shahrida joylashgan oliy ta’lim muassasalariga akademik mobillik asosida ko‘chirildi va ular yotoqxonalar bilan ta’minlandi. Talabalarga bir mahal bepul tushlik ovqat va oylik stipendiya berish yo‘lga qo‘yildi.

Olis hududlarda istiqomat qilayotgan iste’dodli yigit-qizlarning bilim, ko‘nikma va malakasini oshirish hamda ularni qo‘llab-quvvatlashga ko‘maklashish maqsadida “Mirzo Ulug‘bek” onlayn maktablari tashkil etildi. Ayni paytda chekka hududlardagi maktablarda berilayotgan hamda viloyat markazi va shaharlar maktablarida berilayotgan ta’lim sifatida nisbatan farq kuzatilmoqda. Buning bir nechta sabablari bor. Sohada yuqori malakali pedagog kadrlarning, maktab laboratoriyalari uchun jihozlarning yetishmasligi va boshqalar shunday sabablardir.

Mamlakatimizning chekka hududlari va tog‘li tumanlarida ta’lim sifatini yanada oshirish maqsadida Iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash “Ulug‘bek” jamg‘armasi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamkorligida “Mirzo Ulug‘bek” onlayn maktablari kerakli sinfxonalar, zamonaviy uskuna va jihozlar bilan ta’minlandi. Onlayn dars berishni tajriba tariqasida tashkil etish uchun hozirda tog‘li va chekka hududdagi 3 ta maktab tanlab olindi. Bular Jizzax viloyatining Forish tumanidagi 7-umumta’lim, Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumanidagi 70-umumta’lim va Surxondaryo viloyatining Denov tumanidagi 62-umumta’lim maktablaridir. Haftaning har chorshanba va juma kunlari ingliz tili va matematika fanlaridan tajribali o‘qituvchilar ishtirokida qo‘shimcha dars berish yo‘lga qo‘yildi. Mazkur loyihaga maktablardagi ko‘ngilli 10- va 11-sinf o‘quvchilari jalb qilindi. Bunday maktablarni yurtimizning boshqa tog‘li va chekka hududlaridagi ta’lim muassasalarida ham joriy etish rejalashtirilgan.

Jamg‘arma tomonidan 2023-yilda oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikda turli dolzarb mavzular bo‘yicha 30 ga yaqin seminar va ma’ruzalar tashkil etildi. Bunda respublikaning barcha oliy ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar hamda oliy ta’limdan keyingi ta’lim yo‘nalishida ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanayotgan doktorantlar oflayn va onlayn ishtirok etdi.

Shuningdek, jamg‘arma qoshida tashkil etilgan video, ovoz yozish studiyasida o‘tkazilgan ma’ruzalar va seminarlar bo‘yicha videoroliklar tayyorlandi hamda ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirildi. “Iste’dodli yoshlar va yosh targ‘ibotchilar forumi” uyushtirildi.

Joriy yil davlatimiz rahbari tomonidan “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”, deb nomlandi. Bundan ko‘rinib turibdiki, bu yil ham yoshlarimiz uchun kutilmagan yutuqlarga boy yil bo‘ladi. Ularning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi, yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishi yo‘lida zamonaviy, ilg‘or-innovatsion shart-sharoitlar yaratiladi. Zero, yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat’iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning ertangi taraqqiyotida hal qiluvchi kuchga aylanib boryapti. Bu yo‘lda ularga yetarli sharoit yaratish, kuchli rag‘bat va imkoniyatlar eshigini ochib berish kerak, xolos.

Oliy ta’lim

TYUTOR “ENAGA” EMAS

Fikrlash, faktlarni tanlash va tanqidiy tahlil qobiliyatini shakllantiradigan shaxs

Botir USMONOV,
texnika fanlari doktori, professor

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va axboriy rivojlanishining hozirgi darajasi oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisidan ko‘p bosqichli, serqirra tayyorgarlik talab etadi. Bu esa kelgusi faoliyatida mas’uliyatli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, hayotning barcha sohasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga faol moslashish imkonini beradi. Hozir o‘quvchi-talabalarga o‘z rivojlanishining yanada samarali yo‘lini qurish imkonini beradigan yangi ta’lim strategiyalariga o‘tish zarurati mavjud. Dunyoning ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida faol joriy etilayotgan talabalar tyutorligiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

“Tyutor” so‘zining odatiy ma’nosiga o‘qituvchi sifatida emas, balki o‘quvchining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, faktlarni tanlash va tanqidiy tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradigan murabbiy sifatida qaraladi. Tyutor talabaning akademik faoliyati va shaxsiyati rivojlanishini kuzatib boradi. Uning vazifasi o‘quvchilarning muvaffaqiyatini, o‘qishga munosabatini, bilimi va qobiliyatini shakllantirishni nazorat qilishdan iborat. Tyutor individual dars rejasini tuzishda yordam beradi va unga tuzatishlar kiritadi.

Tyutorlik faoliyati talabalarga hayot davomida sifatli ta’lim olish uchun innovatsion o‘qitish muhiti, jarayoni, dasturlari, loyihalarini yaratishda resurs sifatida zarur. Hozir “tyutor” tushunchasiga turli ma’nolar berilgan bo‘lib, ular shaxsiy va kasbiy rivojlanishning individual ta’lim trayektoriyasini qurish uchun talabalar bilan ishlashda murabbiyning maslahat, tashkiliy va uslubiy funksiyalarini aks ettiradi. Tyutor — talabaga ta’lim jarayonini optimal tarzda qurishda yordam beradigan murabbiy. Buning o‘ziga xos jihati shundaki, tyutor har bir talaba bilan individual ishlaydi, uning qiziqishi, imkoniyati va qobiliyatiga e’tibor qaratadi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, birinchi kurs talabalari ko‘p jihatdan eng zaifdir. Shuning uchun birinchi semestr eng muhim va mas’uliyatli bo‘lishi aniqlangan. Ko‘p yillik kuzatish tajribasiga asoslanib, alohida nazorat va e’tibor, o‘zini o‘zi nazorat qilish, tashkilotchilik va mas’uliyat ko‘nikmalari faqat ikkinchi o‘quv yilining oxiriga kelib shakllanadi. Oliy ta’limda o‘qishning boshlang‘ich davri ijtimoiy o‘zgarishlar, orttirilgan stereotiplarni qayta ko‘rib chiqish, stressli vaziyatlar, tashvish va ichki taranglik bilan bog‘liq. Shaxsiy moslashuv yangi talablar va oldingi tajribaga asoslangan shaxsning ularga tayyorligi o‘rtasidagi ziddiyatga asoslanadi. Psixologik moslashuv yangi ekologik omillar ta’sirida ruhiyatning o‘zgarishi, qayta tuzilishi sifatida ishlaydi.

Chet elda o‘quvchi-talabalarning tengdoshlariga tyutorlik qilish tajribasi mavjud. Tyutorlik mohiyatiga ko‘ra, pedagogik faoliyat bo‘lgani sababli o‘quvchi-talabalar o‘zining muloqot, tashkilotchilik va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi, kasbiy pedagogik mahoratini oshiradi. Pedagogik ishning bunday tajribasi tyutorlar faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va ularga o‘qituvchi sifatida o‘z kuchini sinab ko‘rish imkonini beradi. Bundan tashqari, tarbiyachi-talabaning obro‘-e’tibori va ijtimoiy mavqei boshqa talabalarga nisbatan o‘rnak bo‘lishga intilishni kuchaytiradi, shaxsning o‘sishi, o‘zini o‘zi takomillashtirishi, tarbiyalashi, rivojlantirishiga xizmat qiladi.

Tyutorlik talabalarning nafaqat ilmiy yutuqlarini boyitish bilan birga xulq-atvorini yaxshilaydi, o‘qishga ijobiy munosabatni rivojlantiradi. Qolaversa, ijtimoiy va hissiy jihatdan ham foydali bo‘lishi mumkin. Daxldorlik va ijtimoiy qabul qilish tuyg‘usini shakllantiradi, o‘zini o‘zi hurmat qilish va qadrlash hissini oshiradi. Talabalar tyutorligining joriy etilishi o‘rganish va o‘qitish mahoratini oshirishga imkon beradi (“o‘rganishning eng yaxshi yo‘li — o‘rgatish”), do‘stona muhit esa o‘ziga ishonch va jamiyatga daxldorlik hissini mustahkamlaydi.

Dunyoning yetakchi olimlari olib borgan tadqiqot natijalari talabalar tyutorligining samaradorligini ko‘rsatdi va bu tizimdan foydalanish an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan afzalligiga ishonch uyg‘otadi. Tyutor yordami ijtimoiy faol, mas’uliyatli, mustaqil, ijodkor, tashabbuskor shaxsni rivojlantirish uchun samarali sharoitni ta’minlaydi. Bundan tashqari, ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro ta’siri talabalar muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga yordam beradi.

Tyutorlik amaliyotining asosiy maqsadi yuqori madaniyatli shaxsni tarbiyalashdan iborat. Ta’lim jarayonining asosiy mazmuni o‘quvchilarni insonparvarlik qadriyati bilan tanishtirish, axloqiy va estetik idealini rivojlantirish, sa’y-harakatlarini axloqiy jihatdan baholashga, shuningdek, hayotiy qiyin vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatishda namoyon bo‘ladi. Talaba-tarbiyachining pedagogik mahorati, ishontira olishi, maqsadli ish olib borishi, mehnatining ahamiyati va mas’uliyatini anglashi o‘quvchilarni muvaffaqiyatli o‘qitish va tarbiyalash garovidir.

Biroq har bir mas’uliyatli va xushchaqchaq talaba o‘qituvchilik qobiliyatiga ega emas va muvaffaqiyatli tyutor bo‘la olmaydi. Shuning uchun o‘qituvchilar talaba-tyutorlarning ishini kuzatib borishi va pedagogik ishlarni bajarish qobiliyatini namoyish etishiga ko‘maklashishi kerak. Natijada har bir fakultet zarur bilim, ko‘nikma va malakaga ega, maxsus tyutorlik tayyorgarligidan o‘tgan va boshqa talabalarga individual ta’lim trayektoriyalarini qurishda yordam beradigan professional tyutorlar jamoasini shakllantirishi mumkin.

Vazirlar Mahkamasining “Respublika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida bakalavriatning 1-3-bosqichi doirasida har 120-150 nafar talabaga 1 shtat birligi hisobida “tyutor” lavozimini kiritish belgilandi. 2021-yil 1-sentabrdan talabalar bilan ishlash bo‘yicha “guruh murabbiyi” instituti bekor qilingach, o‘rniga talaba-yoshlar bilan ishlovchi tyutorlik vazifasi tatbiq etildi.

Toshkent kimyo-texnologiya institutida hozir 30 dan ziyod tyutor ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy, o‘quv-uslubiy hamda ilm-fan, innovatsion va ilmiy tadqiqot yo‘nalishlarida faoliyat yuritmoqda. Jumladan, ota-onalarni talabalar hayoti va ta’lim-tarbiya jarayonidagi muammolar bilan tanishtirish, mazkur kamchiliklarni o‘rganish, aniqlash va o‘zaro hamkorlik asosida hal qilish maqsadida “Ota-onalar kongressi”, “Ota-onalar bilan muloqot maydoni” tadbirlari tashkil etilyapti. Shuningdek, ta’lim muassasasining odob-axloq kodeksi, ichki tartib-qoidalari bilan tanishtirish, talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ongi va qalbida mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik, milliy o‘zlikni anglash, Vatanga muhabbat va taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish va rivojlantirish uchun axborot hamda murabbiylik soati darslari yuqori saviyada tashkil etilib kelinmoqda.

“Talabalarning bo‘sh vaqti — tyutorning ish vaqti” tamoyili asosida yoshlarning qiziqishiga qarab, “Mohir qo‘llar”, “Orasta qizlar”, sartaroshlik, kompyuter savodxonligi to‘garaklari ochilgan. Qolaversa, sport klubi ham tashkil etilgan. Talabalarimiz klub qoshidagi milliy kurash, voleybol, futbol to‘garaklariga qatnab, chiniqmoqda. “Sport — salomatlik garovi”, “Jismoniy tarbiya va madaniyat — zamonaviy talaba uchun asosiy mezon” shiorlari ostida o‘rtoqlik uchrashuvlari va sport musobaqalari tashkil etilyapti.

Hamkor tashkilotlar bilan birga “Jaholatga qarshi ma’rifat”, “Ommaviy madaniyat”ning yoshlarga ta’siri” kabi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar farzandlarimizni terrorizm, separatizm, prozelitizm, aqidaparastlik, missionerlik, olomon madaniyati, giyohvandlik, uyushgan jinoyatchilik va boshqa illatlarga murosasizlik hamda ularga qarshi kurash ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Talabalar turar joylari, ijara va xususiy xonadonlarda yashovchi yigit-qizlarning yashash manziliga muntazam borib, u yerdagi sharoitlar o‘rganilmoqda. Kerak bo‘lsa, sharoitlarni yaxshilash bo‘yicha institut rahbariyatiga taklif kiritilyapti. Turar joyida yashovchilar bilan samimiy, ahil munosabatda bo‘lgan, barcha jihozlarni namunali darajada tutgan, ommaviy-madaniy, sport va tarbiyaviy tadbirlarda faol ishtirok etgan talabalar o‘rtasida “Eng namunali xona” tanlovi tashkil etilmoqda. G‘oliblar ko‘chma kubok va esdalik sovg‘alar bilan rag‘batlantirilmoqda. Ijara xonadonlarda yashaydigan talabalarning yashash sharoiti, bo‘sh vaqtida qanday mashg‘ulotlar bilan mashg‘ulligi va muammolari o‘rganilyapti.

Tyutorlik institutini yanada rivojlantirish maqsadida “Tyutorlik faoliyatini samarali tashkil etishda zamonaviy yondashuvlar”, “Oliy ta’lim muassasalarida tyutorlar faoliyatini tashkil etishning dolzarb masalalari” mavzularida seminar-treninglar o‘tkazildi. Ularda tyutorlik faoliyatini takomillashtirish, talabalar bilan profilaktik ishlarni jadallashtirish, talabalarni qo‘llab-quvvatlashning huquqiy asoslari, yoshlar bilan individual va jamoaviy ishlashning psixologik jihatlari, bo‘sh vaqtni samarali tashkil etish, ijarada yashovchilar bilan ishlash kabi qator dolzarb mavzular ilgari surildi.

Institutda o‘tkaziladigan ma’naviyat kengashi yig‘ilishlarida tyutorlarning hisoboti eshitiladi, tahlil qilinadi. Yutuqlari e’tirof etilib, kamchiliklarini bartaraf etish bo‘yicha kerakli tavsiyalar beriladi. Tyutorlar faoliyati institutda ishlab chiqilgan “Tyutor faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlari” tizimi orqali baholab boriladi. Yuqori natija ko‘rsatgan tyutorlar rag‘batlantirib kelinmoqda.

Bu sa’y-harakatlardan ko‘zlangan maqsad talabalarning nafaqat mutaxassis, balki to‘laqonli shaxs sifatida shakllanishida tyutorlar rolini va ahamiyatini oshirishga qaratilgan. Shuningdek, ular zimmasiga buyruq berish yoki cheklov o‘rnatish emas, aksincha, yoshlarning maslahatgo‘yi, do‘sti, hamfikri bo‘lib, ko‘ngliga yo‘l topish, muammolarini hamjihat hal etish mas’uliyati yuklangan.

Zahiriddin Muhammad Boburning asarlari ham garchi, u jahongir sifatida tanilib, o‘zga yurtlarda yashagan bo‘lsa-da, o‘z ajdodlariga xos milliy asoslarini yo‘qotmagan, deb ayta olamiz. Bunday asoslarni uning ijodida ham, fotihlik va podshohlik faoliyatida ham ko‘rishimiz mumkin.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz.news yuz

14-fevral – Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi kuni

IKKI DAHO VA besh ruboiy

Adabiyot shunday hodisa-ki, u milliy ildizlar asosida ravnaq topadi, chegara hatlab chiqarkan, uslublarida, g‘oyaviy qarashlarida, umuminsoniy va boshqa qadriyatlar tasnifida integratsiyalashuvni kuzatish mumkin. U san’atning bir turi sifatida millat, elat tanlamay, insoniyatning qalbini boyitish, uni charxlash va tarbiyalashga hissa qo‘shib kelaveradi. Shuningdek, adabiyot o‘z ildizidan uzilib keta olmaydi.

Abdulla SHER,
O‘zbekiston xalq shoiri

Boshlanishi 1-betda

Avval mazmunga e’tibor qilaylik: ey, hayoti, umri men uchun aziz bo‘lgan yor, men seni tanimdagi jonimdan ham ko‘proq sevaman, hattoki bu dunyoda (matematikada) qancha son eng ko‘p miqdor hisoblansa, o‘shandan ham ortiqroq sevaman. Garchand kishi nimani qay darajada ko‘p sevmasin, u bunday sevgidan ortiq bo‘lolmaydi, lekin men seni o‘shandan ham, son-sanoqlar qamrab ololmaydigan miqdordan-da ortiqroq sevaman.

Ko‘rib turibsizki, mazmun go‘zalligi ruboiydagi daho shoirga xos mubolag‘a usuli tufayli shunday yuksak darajaga ko‘tarilganki, bu go‘zallik oldida didi yuksak har bir kitobxonning beixtiyor “voh!” deb yuborishi tabiiy hol.

Endi ruboiyning shakliga nazar tashlaylik. Asar yigirma yetti so‘zdan iborat va uning faqat to‘qqiztasigina lisoniy asos, qolganlari esa radif. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini olgan uchta bir hijoli so‘z qofiya: jon, son, on. Radif esa jo‘nalish kelishigida uch bor takrorlanadigan olti so‘zdan tashkil topgan. Shunday qilib, o‘n ikkita asosiy so‘z yigirma yetti so‘zdan iborat ruboiyni quyoshni ko‘targan osmondek yengil va tabiiy ko‘tarib turibdi.

Bu ruboiyda hazrat Navoiy ritorik takrordan qanday miqyosli va samarali foydalanish mumkinligini kashfiyot darajasiga ko‘targan holda namoyon qiladi. Bunday yuksak mahorat kamdan-kam ijodkorga nasib etadi. Bobur hazratlari ham ana shunday noyob iste’dod egalaridan edi. Uning quyidagi ruboiysi buni yaqqol isbotlab beradi:

Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,
Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,
Sarrishtai ayshdin ko‘ngulni zinhor
Uz, oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.

Endi ruboiyning mazmunini o‘zim tushungan shaklda taqdim etaman: *“Ey Zahiriddin Muhammad Bobur, faryod ko‘tar, ohingdan dasturxon tuz, u dasturxonga yuzta ohni qo‘y, shu bois, yana bir oh ko‘tarda, aysh-ishratga, o‘tkinchi quvonchlarga izn bermaslik uchun ko‘nglingni aysh chilviridan uzib yasha!”.*

Nima uchun shunday?

Bu savolga javobni keyinroqqa qo‘yaylik-da, hozir Bobur ruboiysining shakliy go‘zalligi xususida fikr yuritaylik. Bu asarda ham Navoiy ruboiysi kabi qofiyani bir bo‘g‘inli so‘z tashkil etadi, hatto kelishik qo‘shimchasi yo‘q, faqat so‘zning o‘zi: “tuz”, “yuz”, “uz”. Shunday qilib, ruboiydagi yigirma ikkita so‘zdan yettitasi asosiy so‘zlar, o‘n beshtasi radif. Navoiy olti o‘zak so‘z va bir kelishik qo‘shimchasidan ruboiy yaratgan bo‘lsa, Bobur yetti o‘zak so‘zdan iborat xuddi shunday go‘zal ruboiyni bizga taqdim etadi.

Bunday qaraganda, Bobur ruboiysida Navoiyga taqlid bordek ko‘rinadi. Biroq bu aldamchi taassurot. Jiddiy e’tibor qilinsa, har ikki ruboiy faqat shaklan o‘xshashlikka egaligini, lekin mazmunda keskin farq borligini ilg‘ab olish mumkin, pirovard natijada ular bizga ikki qutbdagi holat tasvirlari sifatida namoyon bo‘ladi. Avvalo shuki, Navoiyning ruboiysi Vatanda emin-erkin yashagan, saltanatda va raiyyatda juda katta obro‘ga ega, umrini asosan o‘zi tanlagan yagona yo‘lga — ijodga bag‘ishlagan baxtli ijodkor insonning o‘z ko‘ngil mahbubasiga dil izhori, oshiqona satrlar. Boburning ruboiysi esa o‘zi sevgan ijod yo‘lini yagona maqsad darajasiga ko‘tara olmagan, taqdir ikkiga ajratgan bir umr bilan goh ijod, goh saltanat yo‘lidan yurishga majbur bo‘lgan, bir qo‘li qilichdan bo‘shamagan, asarlarini goho jangovar ot ustida o‘ylagan va yodaki yozgan “tole’i yo‘q” ijodkorning faryodi. U o‘z Vatanini jonidan ortiq sevadi, lekin taqdir uni Vatanidan judo qilgan. Bobur bunday ruhiy holatni boshqa bir ruboiysida quyidagicha ta’riflaydi:

Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi,
O‘z yerni qo‘yub, Hind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Shoh bo‘lsa ham tolei yo‘qligidan, to‘g‘ri deb o‘ylagan ishlari xatolik ekanidan afsus chekkan, Vatandan ajralishni yuzi qarolik deb bilgan ulug‘ ijodkor qanday qilib xursandchilikda, baxtiyor, aysh-ishratda yashashi mumkin?

Endi yuqorida asosiy tahlilimiz sababchisi bo‘lgan Bobur ruboiysining so‘nggi ikki satriga e’tibor qiling:

Sarrishtai ayshdin ko‘ngulni zinhor
Uz, oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.

Vatan sog‘inchi, huzur-halovat nimaligini bilmagan, umri jahongir-jahongashtalik, jangu jadal, sarson-sargardonlikda o‘tayotgan shoirning hayotiy xulosasi bu!

Boburda yana bir shunga o‘xshash ruboiy bor. Undagi Navoiyga shakliy tatabbu Shoh va Shoirning hayotidagi aynan ana shu reallikka urg‘u berishi bilan bu asarga bizdan uni Navoiy ruboiysiga taqlid emas, butunlay original ijod mahsuli sifatida qabul qilishimizni talab etadi. Gap hazrat Navoiyning quyidagi mashhur ruboiysi haqida:

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,
El anga shafiqu mehribon bo‘lmas emish.
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg‘a tikandek oshiyon bo‘lmas emish.

Bobur yozadi:

Yod etmas emish kishini g‘urbatda kishi,
Shod etmas emish ko‘ngulni mehnatda kishi.
Ko‘nglum bu g‘ariblikda shod o‘lmadi, oh,
G‘urbatda sevinmas emish albatta kishi.

Ruboiyda Navoiyga o‘xshashlik bormi? — Bor. Lekin Bobur hayotini bilgan odam “G‘urbatda sevinmas emish albatta kishi” satriga e’tibor qaratadi va u Boburning tatabbusi oddiy taqlidni emas, balki “albatta” so‘zi orqali ifodalangan tasdiqni anglatishini ilg‘ab oladi. Zero, Navoiyning mazkur ruboiysi juda ommalashib ketgani, o‘sha paytdagi turkiy adabiyotning shoh asarlaridan hisoblanib, hamma uni yod olgani shubhasiz. Buni Bobur juda yaxshi bilgan. Shu bois, bu o‘rinda oddiy taqlid haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Masala shundaki, mazkur ruboiy, ta’kidlaganimdek, Navoiy ruboiysining lirik tasdig‘i sifatida vujudga kelgan. Boshqacharoq aytganda, Bobur uchun Navoiy ruboiysi mavzu vazifasini o‘tagan. Ya’ni Bobur tomonidan bu ruboiy reallikda, hayotiy tajribamda ustoz Navoiy so‘zlari o‘zining hikmat sifatidagi tasdig‘ini topdi, degan maqsadda yozilgan va undagi birgina “albatta” so‘zi uni taqlid hududidan olib chiqib ketgan.

Shunday qilib, tahlilga olganimiz — ikki daho shoirimiz ruboiylaridagi shakliy va uslubiy o‘xshashliklar ularning mazmunan ikki xil she’riy dunyo, ikki ruhiy olamdan iborat ikki xil asar sifatida idrok etilishiga aslo xalal bermaydi. Ular o‘zbek mumtoz she’riyatining go‘zal va abadiy ohorli shoh asarlari sifatida bizni o‘ziga maftun etib yashayveradi.

“EGASIGA QAYTARILMAGAN BIR BO‘LAK IP-U, SINIQ IGNA HAM QOLMADI”

INTIZOM VA ADOLAT BILAN MILLIY QADRIYATLARNI MADH ETGAN SARKARDA

Shahlo AHROROVA,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Har bir san’at asari, jumladan, san’atning nafis turlaridan biri bo‘lmish adabiy mahsulot ham ma’lum bir qarashlar, munosabatlar va o‘ziga xos g‘oyani ifoda etadi. Adabiy asar muallifi o‘z asarida g‘oyaviy qarashlarini badiiylashtiradi. Bu g‘oyaviy qarashlar esa o‘z-o‘zidan shakllanib qolmagan, balki o‘z milliy ildizlariga ega. Ko‘pincha bunday ildiz topgan g‘oyalar milliy qadriyat darajasiga ko‘tariladi.

Dunyo ilm-faniga tamal toshi qo‘ygan, ko‘plab fanlarga, g‘oyalarga, adabiyot, san’atda esa o‘ziga xos yo‘nalishlarga asos solgan buyuk ajdodlarimiz, xususan, Birinchi hamda Ikkinchi Renessans davri yetakchilari sanalmish bobokalonlarimiz ijodi va faoliyatida mana shunday milliy asoslarning qadriyat sifatidagi uzviyligini kuzatamiz.

Zahiriddin Muhammad Boburning asarlari ham garchi, u jahongir sifatida tanilib, o‘zga yurtlarda yashagan bo‘lsa-da, o‘z ajdodlariga xos milliy asoslarini yo‘qotmagan, deb ayta olamiz. Bunday asoslarni uning ijodida ham, fotihlik va podshohlik faoliyatida ham ko‘rishimiz mumkin.

Ma’lumki, har bir millatning tili — uning uchun eng buyuk milliy qadriyat sanaladi. Bu qadriyat millatning o‘zligini anglash, o‘z ildizlarini yo‘qotmasdan, ulardan ma’naviy oziqlanib turish, qolaversa, hamma zamonlarda ham jahon sahnida o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga ko‘maklashuvchi asosiy vositalardan biridir. Shu bois, mustabid mamlakatlar o‘z mustamlakasiga olgan yurtlarni bir qancha ma’naviy ildizlari, milliy qadriyatlari qatorida milliy tilidan, yozuvidan ham mosuvo qilishga urinib keladi. Buni o‘z moziyimizga nazar tashlab, Iskandar Maqduniy istilosi, arablar bosqini, ruslar mustamlakasi davri misolida ko‘rsak bo‘ladi. Shu ma’noda, bobokalonlarimizning turkiy tilni (hozirgi o‘zbek va shunga yaqin tillarni) asrash, rivojlantirish, badiiy asarlar orqali uning imkoniyatlarini ochib berishga qo‘shgan ulkan hissasi — milliy ildizlarni mustahkamlashga bo‘lgan g‘oyat ahamiyatli ishlardan sanaladi. Xususan, Alisher Navoiyning turkiy tilda bitgan g‘azallari, ayniqsa, “Xamsa” asari bu borada muhim o‘rin tutadi. Hazrat Navoiygacha ham turkiyda ijod qilgan shoirlar bo‘lgan, albatta. Biroq “Xamsa”dek buyuk asarning turkiy tilda yaratilishi tom ma’noda buyuk hodisa sanaladi. Alisher Navoiydan keyin turkiy tilda ko‘plab asarlar bitila boshlandi.

Ularning orasida Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi alohida salmoqqa ega. “Turkiy she’rni Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas. Turkiy tilda benihoya nafis devoni bor. “Mubayyin” nomli she’riy asar yozgan bo‘lib, fiqhga oid bag‘oyat foydali bu risola odamlarga maqbuldir. Turkiy aruzga oid asar bitgan bo‘lib, hech kim ungacha turkiy aruz haqida bu qadar aniq yozolmagan”, degan edi ulug‘ muarrix Mirzo Muhammad Haydar “Tarixi Rashidiy” asarida.

Darhaqiqat, “Vaqoe’” (“Boburnoma”) asari ham turkiy tilda bitilgan. Bobur asarlari turkiyda bo‘lishi bilan birga, tili sodda va ravonligi bilan ham ahamiyatga molikdir. Boburning ona tiliga g‘amxo‘rlik borasida qilgan yana bir ulkan ishi shundan iboratki, u arab alifbosini turkiy til talaffuziga moslashtirish uchun uni osonlashtirish va soddalashtirish borasida “Xatti Boburiy” risolasini bitdi. O‘zi yaratgan mana shu imloda bitgan she’rlarini farzandlariga jo‘natgan va boshqa asarlar ham bitgan. Chunonchi, tajriba sifatida o‘zi yaratgan alifboda Qur’oni karimni ham ko‘chirgan. O‘zbek tilida bir qator badiiy va ilmiy asarlar yaratib, til nazariyasi sohasiga munosib hissa qo‘shgan.

Bobur o‘z asarlarida ham milliy hikmatlar, maqollardan mohirona foydalanadi va ularni kechmish voqealarga ta’bir etadi. Shunday maqol va hikmatlardan “Dushman ne demas, tushga ne kirmas”, “Qopudag‘ini qopmasa, qariguncha qayg‘urur”, “Inonmag‘il do‘stingga, somon tiqur po‘stingga”, “Ko‘zlarini tuz tutdi”, “Uzri gunohdan yomonroq” kabilarni keltirish mumkin. Bu maqollarning ijtimoiy ahamiyati dushmanlik xususida so‘z yuritilib, voqealarning mohiyatini yoritish mobaynida ochib beriladi.

Qolaversa, Boburda milliy xarakter, chunonchi, obodonchilik, xayriya, saxovat ishlariga moyillik kuchli edi. U ko‘pgina jahongirlardan farqli o‘laroq, xuddi Temur bobosi kabi o‘zi egallagan yurtlarni obod qiladi. Mirzo Muhammadning keltirishicha, “Aning nisbati Umar Shayx Ko‘ragon ibn Sulton Abu Sayd Ko‘ragon ibn Sulton Muhammad Mirzo ibn Mironshoh Mirzo ibn Amir Temur Ko‘ragondur”. Chunonchi, Amir Temur Samarqand va uning atrofida Bog‘i Baland, Bog‘i Behisht, Bog‘i Davlatobod, Bog‘i Dilkusho, Bog‘i Jahonnamo, Bog‘i Maydon, Bog‘i Nav, Bog‘i Chinor, Bog‘i shamol kabi bog‘larni bunyod etgan bo‘lsa, Bobur tamoyilni o‘zi uchun dasturulamal qilgan holda, milliy qadriyat darajasiga olib chiqa oldi. U o‘z asarida bobosi Amir Temur haqida ushbu so‘zlarni bitadi: *“Adolati shul darajada ediki, Andijon yurtining sharqiy tomonidagi tog‘larning etagida Xitoydan kelayotgan mingta qoramollik katta karvonni shunday qor bosdikim, undan ikki kishigina qutulib qoldi, xolos. (Amir) xabar topib, o‘z odamlarini (u yerga) yuborib, karvonning bor narsalari(mollari)ni yig‘dirdi. O‘sha paytda (molning vorislari bo‘lmaganidan, (ularni) ehtiyot yuzasidan saqlab, bir-ikki yildan so‘ngra Samarqand va Xurosondan (karvonning) vorislarini surishtirib, toptirib keltirib, (ularga) mollarni eson-omon topshirdi”.*

Bobur o‘z faoliyatida shunday yo‘l tutadi va endi uning tabiatidagi qat’iyat namoyon bo‘ladi, ya’ni uning yozishicha, bir qishloqda navkarlaridan biri birovga tegishli bo‘lgan bir xumcha yog‘ni o‘g‘irlab berkitadi, bu xabar shohga yetib boradi. Shunda Bobur boshqa navkarlarga o‘rnak sifatida uni savalashga buyuradi va shu tariqa halollik va adolat borasida qo‘l ostidagilarga saboq beradi.

Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlar.

Qobulni egallagach, u yerda Bog‘i Shahraro, Bog‘i Jahonaro, O‘rtabog‘, Bog‘i Vafo, Bog‘i Bobur kabilarni barpo etadi.

Shuningdek, Qobulda Amir Temurning yana bir avlodi Ulug‘bek bunyod etgan Bog‘i Navro‘ziy ham bo‘lganini e’tirof etish lozim. Boburning onasi Qutlug‘ Nigorxonim aynan mana shu boqqa dafn etilgan. Bobur Hindistonda ham juda ko‘p bunyodkorlik ishlarini olib borgan. Parokandalik, tarqoqliklarga, ichki nizolarga barham berib, elni birlashtirishda kuchli o‘rin tutgan sarkor sifatida Hindiston tarixida qolgan. Mamlakatda qo‘ligul hunarmandlar va tadbirkor kishilar yetarli, ammo ijodkorlik hamda kashfiyotchilik ruhi miskin edi.

Bobur Mirzoning buyukligi yana shundaki, u bir vaqtning o‘zida sarkarda va podshohlikka monand jasorat, qattiqqo‘llik, kezi kelganda, beshafqatlikni san’atga moyil, dilbar, adolatli, mehribon va kechiruvchan fazilatlarga uyg‘unlashtira olgan. Xususan, u mahv etgan Ibrohim Lo‘diyning onasi malika Bayda oshpazlar bilan til biriktirgan holda uni zaharlagan va keyinchalik uning muntazam betoblanishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa-da, Boburning bu suiqasdni kechirishi — uning ulkan matonat sohibi va buyuk qalb egasi bo‘lganidan dalolat beradi. Biroq u adolatpeshalikni bobosi Amir Temurdan meros qilib olgan va bu tamoyilni bobosi kabi milliy qadriyat darajasiga ko‘targandi. Qolaversa, kechirimlilik — millatimizga xos xususiyatlardan biri sanaladi.

Amir Temur “Kuch — adolatdadir” g‘oyasini milliy g‘oya darajasiga ko‘targan bo‘lsa, Bobur ushbu

Yurishlaridan birida odamlarining bir joy aholisidan ko‘plab o‘lja undirganini bilib qoladi va bu o‘ljalarni ipidan ignasiga egalariga qaytarishga majbur qiladi. “Ertasi kuni egasiga qaytarilmagan bir bo‘lak ip-u, siniq igna ham qolmadi”, deydi Bobur. U ana shunday intizom va adolat asosida ish yuritgan. Bu g‘oya mutafakkirning asarlarida ham aks etgan. Masalan:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir,
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonliq hargiz,
Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidir.

Shuningdek, qayerda bo‘lmasin, yurt qayg‘usi u bilan birga edi. Bu hasrati ham uning asarlarida so‘z aytadi:

Noumid bo‘ldum, ey Mo‘g‘ul, sendin,
To eshittimki, Andijon bording.
Aytg‘on so‘zga keldim, ammo, sen
Yaxshi kelding demay, yamon bording.

Bobur ijodi ulkan ma’naviyat maktabidir. Bu maktab sizga ma’rifatparvarlikdan ham *(Kim yor anga, ilm tolibi ilm kerak, O‘rgangali ilm tolibi ilm kerak. Men tolibi ilm-u tolibi ilme yo‘q, Men bor men ilm tolibi ilm kerak)*, vatanparvarlikdan ham *(Tole’ yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi, Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi. O‘z yerni qo‘yub, Hind sori yuzlandim, Yorab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi)*, insonparvarlikdan ham, milliy qadriyatlardan ham saboq beradi. Boburning nafaqat ilmiy va badiiy asarlari, balki har bir faoliyati ma’naviy qirralarini o‘rganish borasida olimlar oldida hali vazifa ko‘p.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 415.
9800 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 22:00 Topshirildi — 22:05

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05